

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**UMUMIY TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**“UMUMIY TILSHUNOSLIK” FANIDAN**

**MA’RUZALAR MATNI**

**5120100 – Filologiya (tillar bo‘yicha)**

**5111400 – Xorijiy til va adabiyotini o‘qitish**

**5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti  
yo‘nalishlari bo‘yicha**

**4-bosqich bakalavr talabalar uchun**

**Tuzuvchilar:**

R.U. Madjidova – f.f.n., dotsent, “Umumiy tilshunoslik” kafedrası mudiri

X.S. Muxitdinova – p.f.d., “Umumiy tilshunoslik” kafedrası professori

Sh.M. Sultonova - “Umumiy tilshunoslik” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Toshkent - 2016**

## 1-MA'RUZA

### **TILSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISH TARIXI. QADIMGI HIND, GREK VA ARAB TILSHUNOSLIGI. O'RTA OSIYO'DA TILSHUNOSLIKNING RIVOJLANISHI.**

#### **REJA:**

1. Qadimgi hind tilshunosligi.
2. Antik davrda grek va Rim tilshunosligi.
3. Arab tilshunosligi maktablari.
4. O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi

**Asosiy tushunchalar:** qadimgi tilshunoslik, antik davr, hind tilshunosligi, vedalar, sanskrit va prakrit, Panini grammatikasi, grek tilshunosligi, falsafiy davr, analogistlar, anomalistlar, grammatika davri, Aleksandriya maktabi, ellinizm, Rim tilshunosligi, arab tilshunosligi, Basra, Kufa, Bag'dod maktablari, O'rta Osiyo tilshunosligi, "Devonu lug'otit turk".

## TILSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISH TARIXI

Lingvistik ta'limotning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni qariyb 3 ming yillik tarixni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, til haqidagi fan faqat XIX-XX asrlardagina mustaqil fan sifatida shakllandi. Aniqrog'i, tilshunoslik O'rta Osiyoda XI-XV asrlarda, Yevropada esa XIX asrning boshlaridan boshqa fanlar qatorida mustaqil fan sifatida tan olindi. Ammo insonlarning til ilmiga qiziqishlari ancha ilgari boshlangan bo'lib, tilshunoslikning ildizlari taxminan eramizdan avvalgi VI ming yillikda Hindistonda, IV ming yillikda Yunonistonda, III ming yillikda shumerlar yashagan Mesopotamiyada, II ming yillikda misrliklarda, eramizning I ming yillik boshida Turon qabilalarida vujudga kelgan.

Eramizdan oldingi VI asrlarda Xitoyda mashhur faylasuf Konfutsiy (554-449 yy.) tomonidan yozilgan solnomalarda qadimgi xitoy yozma yodgorliklari haqida ma'lumotlar berilgan. "Bahor va kuz" deb atalgan ushbu asarlarda eramizdan oldingi 722-481 yillar orasidagi davrlar aks ettirilgan. Qadimgi xitoyliklar eramizdan 10 asr ilgari lug'at tuzganlar, eramizning boshlarida esa ular sinonimlar lug'atini ham tuzganlar. Keltirilgan dalillar tilshunoslik fanining shakllanish davri nihoyatda uzoq va murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tganligini ko'rsatadi.

Tilshunoslik fanining eng qadimgi manbalari 2 mintaqada, 2 xil madaniyat o'chog'ida, ya'ni qadimgi Sharq - Hindiston va Arabiston hamda qadimgi G'arb - Yunoniston va Rimda vujudga kelgan. Shuning uchun tilshunoslik fanining tarixiy yo'lini qadimgi tilshunoslik, o'rta asrlar tilshunosligi, XIX asr tilshunosligi va zamonaviy tilshunoslik kabi tarixiy-xronologik davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

## QADIMGI HIND TILSHUNOSLIGI

Jahon tilshunosligining markazi, beshigi sifatida qadimgi Hindiston tan olingan bo‘lib, hindlar til bilan dastlab sof amaliy maqsadlarda - qadimgi yozma yodgorliklarning turli o‘zgarishlarga uchragan so‘z va qo‘shimchalarini qayta izohlash maqsadida shug‘ullanganlar. Hind olimlari eramizdan oldingi XV asrdan (ba‘zi manbalarga qaraganda hatto eramizdan oldingi 45-25 asrlarda) qadimgi sanskrit tilida yozilgan Vedalar - 10 qismdan iborat diniy madhiyalar: gimnlar, diniy qo‘shiqlar va afsonalar to‘plamini hamda o‘rganishni boshlaganlar. Vedalar (sanskrit tilida *veda* “bilim”, *sanskrit* atamasi esa “ishlangan”, “mukammal” degan ma’nolarni bildiradi) braxmanizm deb ataladigan induizm dinining diniy-falsafiy ta’limoti aks ettirilgan muqaddas kitoblari bo‘lib, miloddan oldingi VI asrdan avval paydo bo‘lgan va bugungi kungacha o‘z mohiyatini yo‘qotmagan.

Eng qadimgi vedalardan biri - “Rigveda” vedalarning madhiyasi bo‘lib, turli she’riy uslubda yozilgan 1028 satrdan iborat lirik asar hisoblanadi. Rigveda hindlarning qadimgi tili – sanskrit tilida yozilgan bo‘lib, bu til hozirgi kunda ham milliondan ortiq hindlarning diniy muloqot tili hisoblanadi. davrlar o‘tishi bilan sanskrit - braxmanlarning kanonlashtirilgan til bilan jonli xalq tili – prakrit (*prakrit* – “oddiy”, “tabiiy” degan ma’noni bildiradi) o‘rtasida katta tafovut yuzaga keladi. Hind olimlari sanskritda yozilgan vedalarni o‘rganish, tahlil qilish orqali qadimgi adabiy tilni tiklashga, matnlardagi so‘zlarni bir-biriga qiyoslab, ularni o‘xshash va noo‘xshash qismlarga ajratishga uringanlar.

Vedalardagi ma’nosini tushunib bo‘lmaydigan atamalarning izohli lug‘atini tuzganlar, matnlarni fonetik va morfologik nuqtai nazardan tahlil qilganlar. Ular ushbu matnlardagi so‘zlarni ma’noli qismlarga (ya’ni morfemalarga) ajratishni “v’yakarana” – tahlil deb ataganlar. Natijada, bir tomondan, so‘z shakllari uchun umumiy bo‘lgan o‘zak va negiz, ikkinchi tomondan, so‘zdagi o‘zgarib turadigan qism – so‘z yasovchi va o‘zgartiruvchi affikslarni aniqlashgan. Shu tariqa so‘z yoki so‘z shakllari amalda birlamchi elementlarga (hozirgi morfemalarga) ajratilgan. Shunday tahlillar yordamida hatto har bir so‘zning sinonimik shakllarini topishga muvaffaq bo‘lishgan

Bu sohada yaratilgan qo'llanmalarning eng mashhuri miloddan oldingi IV asrda Panini tomonidan yaratilgan "Ashtadx'yan" bo'lib, hind tilshunoslari Panini davrini o'zining eng taraqqiy etgan davri, deb hisoblaydilar. "Ashtadx'yan" grammatik qoidalar mujassamlangan 8 qismdan va 3996 she'riy qoidadan iborat bo'lib, xotirada yaxshi saqlanib qolinadigan uslubda yozilgan. Qadimgi hind olimlari orasida so'zlarni turkumlarga ajratish masalasida yagona fikr mavjud emas edi. Ba'zilar so'zlarni 4ta turkumga ajratishsa, ba'zilar esa 3ta bo'lishardi. Qadimgi hind grammatikachilari fikricha, so'z gapdan tashqarida ma'no bildirmaydi, tilning asosiy birligi gapdir. Panini va uning izdoshlari sanskrit tilidagi qo'shma so'zlarni chuqur tasnif qilishgan, ularning tasnifi hozirgi klassifikatsiyaga juda yaqinligini ta'kidlash mumkin.

Panini o'z grammatikasida so'zlarni 4 turkumga ajratadi: ot (*ratan*), fe'l (*akhyata*), old qo'shimcha (*upadarda*) va yuklama (*pipata*). "Ashtadx'yan"da tovushlar tasnifining fiziologik asoslariga alohida to'xtalangan bo'lib, nutqning tovush artikulyatsiyasi va artikulyator (*karana*) yordamida vujudga kelishi, ularda unli tovushlar mustaqil fonetik element hisoblanishi va bo'g'inning asosini tashkil qilishi aniq izohlangan. Qadimgi hind grammatikachilari so'zlarning ma'no tomonigagina emas, tovush jihatiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Tovush, tovushlarning fiziologik-artikulyatsion xususiyatlari, bir tovushning boshqa tovush ta'sirida o'zgarishi (*kombinator o'zgarish*) kabi hodisalarni ham o'rganganlar. Ular tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-biriga tegishidan undoshlar hosil bo'lishini qayd etganlar.

Umuman, qadimgi hind olimlari fonetikani juda chuqur o'rganganlar. Ular unli tovushlarga mustaqil qo'llana oladigan, undoshlarga mustaqil qo'llana olmaydigan elementlar, deya ta'rif berishgan. Hindlar musiqiy urg'uga katta e'tibor qaratganlar, hatto fonema tushunchasini ham tahlil qilganlar, bo'g'in tuzilishi to'g'risida ham ko'p foydali fikrlar bildirganlar. Shuni qayd etish kerakki, eramizdan avvalgi VI ming yillikda yaratilgan ko'pchilik fonetik qonun-qoidalar an'anaviy ravishda avloddan-avlodga o'tib kelgan va hozirgi zamon tilshunosligi aynan shu an'analarga tayangan holda rivojlanib bormoqda.

Panini grammatikasi deyarli 10 asr davomida asosiy qo'llanma sifatida foydalanib kelingan. Panining qarashlari Mesopotamiya orqali qadimgi Gresiyaga, Suriya orqali arab tilshunosligiga tarqalgan va ularga sezilarli ta'sir qilgan. Shunday qilib, qadimgi hind tilshunoslari jahon tilshunosligiga katta hissa qo'shgan va o'z ta'sirini ko'rsatgan. Hind tilshunosligi Yevropaga faqat XVIII asrdagina yetib kelgan. Ammo Hind tilshunosligi O'rta Osiyoga ancha ilgari ma'lum bo'lgan, Jumladan, sanskrit tilini yaxshi bilgan mashhur olim Abu Rayhon Beruniy (X-XI asrlar) o'zining Hindistonga bag'ishlagan asarida hindlarning nozik tabiatli va didli faylasuf, tilshunos, shoir ekanliklarini qayd qilib o'tgan.

## **QADIMGI GREK VA RIM TILSHUNOSLIGI**

Eramizdan avvalgi VI-V asrlarda qadimgi Afinada falsafa barcha bilim tarmoqlarini o'z ichiga olgan yagona fan bo'lgan. Antik dunyo faylasuflari tilga ham falsafaning ajralmas bir qismi sifatida qaraganlar va til hodisalarining mohiyatini falsafiy nuqtai-nazardan izohlashga harakat qilganlar. Ular so'z bilan predmet o'rtasidagi munosabatni tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'lanish, "garmoniya" (ya'ni monandlik, moslik, uyg'unlik) haqidagi ta'limot asosida izohlashga intilganlar. So'zlar va ularning nomlanishi, ularning ichki mohiyati to'g'risidagi fikrlar mashhur faylasuflarning munozara va mushoiralarida aks etardi. Shundan kelib chiqib, qadimgi grek (yunon) tilshunosligi taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi 2 davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Falsafiy davr.
2. Grammatik (yoki filologik) davri.

Xususan, ushbu munozaralar Platonning (er.av. 427-347 yy.) "Kratil" nomli asarida Germogen va Kratil orasidagi bahslashuvda bayon etiladi. Kratilning fikricha, har bir nom (ot) predmetning mohiyatidan kelib chiqadi, ya'ni uning tabiatiga mosdir. Germogenning zamondoshi Sokratni ham (er.av. 469-399 yy.) Kratilni yoqlab, hech kim o'z ixtiyori bilan so'zni o'zgartira olmasligini bildiradi. Ularning fikricha, til kishilarning ruhida tabiat talabiga ko'ra paydo bo'lgan

hamda soʻz predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi. Yaʼni, ular soʻzlovchi gapirganida soʻz orqali predmetning tabiati haqida qanday taassurot hosil boʻlsa, eshituvchida ham shunday taassurot tugʻiladi, har bir nom oʻzi anglatayotgan narsa, buyum, hodisa bilan aloqada, bogʻlanishda boʻlib nomlarda ularning mohiyati aks etadi, «ochiladi», deb hisoblaganlar.

Aniqrogʻi, suvda daraxtlar, koʻzguda biz aks etganidek, har bir nom oʻzi ifodalayotgan predmetning mohiyatini aks ettiradi va bu bogʻlanish tabiat tomonidan berilgan zaruriy bogʻlanish hisoblanadi. Yaʼni, narsalargina emas, ularning nomlari boʻlgan soʻzlar ham tabiat tomonidan yaratilgan, ularga tabiatan berilgan «toʻgʻri» nomlar bor. Bu qarash onomatopeya - tovushga taqlid nazariyasini ilgari surishga olib keldi. Unga koʻra, soʻzning tovush tarkibi bilan soʻz anglatgan predmet orasida qandaydir ichki oʻxshashlik, moslik mavjud va bu predmet haqidagi tasavvurda ham aks etadi. Masalan, shirin, yoqimli, xushboʻy narsalarning nomlari yumshoq tovushlardan, aksincha, achchiq, yoqimsiz, badboʻy narsalarning nomlari dagʻal tovushlardan tashkil topgan boʻladi. Bu etimologiya taʼlimotini yuzaga keltirdi, biroq bu, albatta, ilmiy etimologiya emas edi.

Mashhur yunon faylasufi Aristarx (e.av.II asr oxiri) boshchiligidagi analogistlar tilning grammatik qurilishi va lugʻat tarkibi bilan borliq oʻrtasida tabiiy muvofiqlik mavjud, degan gʻoyani ilgari surganlar. Ular grek va lotin tillarida otlar 3 xil: erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har 2 jinsga ham tegishli boʻlmagan jins mavjud, shunga koʻra ayrim predmetlar erkaklar jinsiga, ayrimlari esa ayollar jinsiga yoki oraliq jinsga tegishli boʻladi, deb hisoblashgan.

Anomalistlar oqimi yetakchisi Krates hamda uning tarafdorlari esa borliqdagi narsalarni 3 xil grammatik jinsga boʻlinishi bemaʼnilikdir, deyдилar. Masalan, rus tilidagi *cherepaxa* (toshbaqa), *belka* (olmaxon) soʻzlari shakliga koʻra grammatik jihatdan ayollar jinsiga tegishli boʻlishi kerak edi, amalda esa ushbu hayvonlarning erkagi ham, urgʻochisi ham bir xil ataladi. Ushbu misollar soʻz shakli va mazmuni oʻrtasida muvofiqlik mavjud emasligini dalillaydi.

## **Antik tilshunoslikning falsafiy davri namoyondalari**

- **Anaksimenes** (e.av. 560-502 yy.) - «Ritorika» asarida stilistika asoslarini yaratgan olim.
- **Prodikos** (e.av. V asr) - sinonimlar, maʼnodosh soʻzlarning xususiyatlari, maʼno qirralarni oʻrgangan.
- **Protogoras** (e.av. 480-410 yy.) - otlarning jinslari, feʼl zamonlari va gaplarning turlarini oʻrgangan olim.
- **Platon** ((e.av. 427-347 yy.) - etimologiya faniga asos solgan, mantiqan jihatdan nutqda otlarni va feʼllarni farqlagan, gapda ega vazifasida kelgan soʻzlarni ot deb, kesim vazifasida kelgan soʻzlarni feʼl deb atab, feʼlni ot haqidagi xabarlarini tasdiqlovchi soʻzligini qayd etgan.

**Tilshunoslikning grammatik davri** qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb ham yuritiladi va u makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bogʻliqdir. Makedonskiyning harbiy yurishlari tufayli Oʻrta Yer dengizi, Oʻrta Sharq, Qora dengiz atroflari hamda hozirgi Yevropa mintaqalariga grek madaniyati, ilm-fani tarqaldi va Sharq madaniyati bilan qoʻshilib ketib, aralash madaniyat – **ellinizmni** vujudga keltirdi. Iskandariya ellinizm madaniyatining va ilm-fanning eng yirik markazi hisoblandi va e. av. III asrdan boshlab hatto Afina va Rim ham Iskandariya bilan tenglasholmadi. Harbiy yurishlar natijasida toʻplangan 700 ming jildga yaqin nodir asarlar olamshumul Aleksandriya kutubxonasining hamda shu asosda Aleksandriya maktabining yuzaga kelishiga sabab boʻldi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi boʻyicha jiddiy tadqiqot ishlari olib borganlar, xususan, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlab chiqilgan. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tahlil qilib, tovush va harflarni bir narsa, deb hisobladilar, harflarni unli va undoshga ajratdilar. Unli harflarga oʻzini alohida eshitish mumkin boʻlgan tovushlar sifatida, undosh harflarga esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, boʻgʻin, urgʻu masalalar boʻyicha ham ayrim maʼlumotlar berishdi. Iskandariya



maktabining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular grammatikani falsafadan ajratdilar.

Bunda, albatta, Sharqdan keltirilgan nodir qo'lyozmalarning ta'siri katta bo'lgan. Demak, qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatining rivojlanishida qadimgi misrliklar, shumerlar, finikiyaliklar, qadimgi Eron va Turon xalqlarining ham sezilarli hissasi bor. Aleksandriya maktabida ulug' shoir, yozuvchilar, matnchilar ijod qilishgan. Ularning oldiga qo'yilgan dastlabki vazifa - qadimgi qo'lyozmalarni, ayniqsa, Gomer asarlarini o'rganish, shuningdek, Sharqdan keltirilgan nodir qo'lyozmalarni tarjima qilish va tahlil qilishdan iborat edi. Ushbu maktabning eng yirik namoyandalari Zenodot, Aristarx (e.av.II asr oxiri), Dionisiy (eramizning II asri boshlari), Appoloniya Diskol (II asrning 2-yarmi) larning tahliliy ishlari natijasida grammatik kategoriyalar, klassifikatsiya ta'limotlari yaratildi.

**Zenodot** (eramizgacha bo'lgan 250 y.) – Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbari, Gomer, Esxil, Sofokllarning asarlari ustida tadqiqot ishlari olib borgan, artikl, olmoshlarni farqlagan olim.

**Dionisiy** (e. Av. 170-90 yy.) – Aristarxning shogirdi, dastlabki tizimlashtirilgan «Grammatika san'ati» kitobini yaratgan. Uning ta'limotiga ko'ra, so'z nutqning eng kichik bo'lagi, gap fikr ifodalaydi va so'zlarning o'zaro munosabatidan hosil bo'ladi. U otni kelishik va songa ko'ra o'zgaruvchi turkum deb bilgan, sifatni ham uning tarkibiga kiritgan. Fe'lni kelishiksiz so'z turkumi deb hisoblab, zamon, shaxs-son, mayl, tuslanish, nisbatga ega ekanligini qayd etgan. Sifatdoshlarni fe'l va otlarga xos belgilarni birlashtirgan kategoriya sifatida talqin etadi. Artikl, uning fikricha, turlanuvchi so'z turkumi va u otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Olmoshlar ot o'rnida qo'llanadigan so'zlar bo'lib, shaxslarni ko'rsata oladi. Ravish fe'lga birikadigan, fe'l haqida ma'lumot beradigan, turlanmaydigan so'z turkumidir. Bog'lovchi fikrni ma'lum tartibda bog'laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko'rsatadigan so'zdir.

**Aristarx** (e. av. 215-143 yy.) Iskandariya maktabining eng yetakchi olimi, Iskandariya kutubxonasini boshqargan. 40 qa yaqin shogirdlari bilan Gomer

asarlari matnlarini to'liq tiklagan, so'zlarni 8ta turkum: ot, fe'l, sifatdosh, artikl, olmosh, old ko'makchi, ravish va bog'lovchiga ajratgan.

**Aristotel** (e. b. 324-322 yy.) Antik tilshunoslikning grammatik davri buyuk mutafakkir Aristotel nomi va xizmati bilan bog'liq. Uning so'z turkumlari haqidagi ta'limoti so'zni falsafiy-mantiqiy tomoni va grammatik jihatini uyg'unlikda o'rganish negizida vujudga kelgan edi. Aristotel "Poetika" asarida 8ta so'z turkumini ajratadi: element (ya'ni tovush), bo'g'in, bog'lovchi, chlen, ot, fe'l, kelishik va gap (nutq).

**Appoloniya Diskol** (e. II asr 1-yarmi) –yunon tili sintaksisi bo'yicha «Sintaksis haqida» asarini yozgan.

## O'RTA ASR RIM TILSHUNOSLIGI

Rim tilshunosligi yunonlar erishgan barcha yutuqlarni tahrir qilish va tartibga keltirish bilan shug'ullandi. Rim grammatiklaridan Mark Terentiy Varron, Donata, Prissianlar lotin tilini o'rganishdi va grammatikasini yaratishdi. O'rta asrlarda got, arman, irland, qadimgi ingliz va slavyan tillarining yozuv tizimi paydo bo'lgan va lotin tili o'lik tilga aylanib bo'lgan bo'lsa-da, lotin grammatikasining barcha tillar uchun umumiy hisoblanib, qoidalari va tushunchalari yangi tillar grammatikasiga ko'chirilar edi. Natijada, boshqa tillarning o'ziga xosligi yo'qolib, lotin tilidagi atamalar barcha tillarning grammatikalari tarkibiga kirib ketdi. Atamalarning asosiy qismining lotin yoki grek tilidaligining asosiy sababi ham shunda.

Antik davr tilshunoslarining nomlar to'g'risidagi munozaralari o'rta asrlarda ham davom ettirilib, ular falsafiy realizm va nominalizm ta'limotlari nomini oldi. Rim tilshunosligida ruhoni yepiskop Anselm (1033-1109) boshchiligidagi realistlar faqat umumiy tushunchalar mavjud, Rossellin (1050-1110) real buyumlar ularning soyasi deb hisoblashar, yetakchiligidagi nominalistlar esa aksincha borliqda konkret buyumlar mavjud, insonlar faqat o'z tasavvurlaridagina ushbu xususiyatlarni umumlashtiradilar, der edilar. Per Abelyar (1079-1142) boshchiligidagi konseptualistlar mo'tadil nominalistlar deb atalib, umumiy

tushunchalar alohida mavjud bo'lmaydi, ular real mavjud narsa-predmetlar xususiyatlarini aks ettirish orqali hosil qilinadi, degan haqiqatga mos g'oyani ilgari surganlar.

## **ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI**

Ayni davrda Sharqda arab tilshunosligi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va Sharq mamlakatlariga tarqalayotgan edi. Arab tilshunosligining rivojlanishi masalasida turlicha fikrlar bor:

- Arab tili grammatikasi grek falsafasi ta'sir qilmagan holda mustaqil ravishda yaratilgan (Iogann Veyss).
- Grek tili bilan arab tili bir-biridan butunlay farq qilgani uchun grek grammatikasiga oid tushunchalar arab grammatikasiga qabul qilingan emas (Karl Brokkelman).
- Arab grammatikasidagi asosiy tushunchalar grek fanidan, Aristotel mantig'idan olingan.
- Arab grammatikasi hind grammatikasi ta'sirida yaratilgan.

Aslida arab tilshunosligining rivojlanishi VII asrdan boshlab islom dinining Sharq mamlakatlariga keng miqyosda tarqalishi bilan bog'liq edi.

Aslida arab tilining o'rganilishida asosan quyidagi amaliy maqsadlar ko'zda tutilgan edi:

- 1) islom dinini qabul qilgan mamlakatlar xalqlariga arab tilini o'rgatish;
- 2) muqaddas "Qur'on" oyatlari va hadislardagi so'zlarning tarixiy shakllari va ma'nolarini sharhlash va izohlash. Arab tilshunosligi rivojida quyidagi 3ta yo'nalishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

**1. Basra analogistlar maktabi (klassikani saqlash)**

**2. Kufa analitiklar maktabi (erkin munosabat)**

**3. Bag'dod ekletiklar maktabi (aralash munosabat).**

Ushbu maktablar vakillari tomonidan arab tilidan dastlabki lug'atlar, arablar uchun va g'ayri arablar uchun qo'llanmalar yaratildi. Bu asarlar arab

leksikografiyasi va grammatikasining rivojlanishiga, arab tiliining Sharq mamlakatlariga tarqalishiga amaliy xizmat qildi.

Jumladan, Basra maktabining asoschilaridan biri Xalil al-Farohidiy (taxminan 718-791yy) arab tilining “Kitobul ayn” (“Ayn harfi kitobi”) nomli dastlabki lugʻatni va “Kitobul avomil” (“Boshqaruvchilar kitobi”) qoʻllanmasini yaratdi. Biroq bu kitoblar bizgacha yetib kelmagan. Uning shogirdi, shhur arab tilshunoslaridan biri Amir bin Usmon Sibavayxiy (733-yilda vafot etgan) “Al-Kitab” asarini yaratdi. Oʻsha davrdagi barcha taʼlimotlar, qarashlarni umumlashtirgan mazkur kitob Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan yuqori baholangan hamda oʻsha davr arab adabiy tilining sintaktik va morfologik tuzilishi, soʻz yasaliş va fonetik tizimi toʻliq aks ettirilgan qoʻllanma sifatida uzoq yillargacha islom dinini qabul qilgan mamlakatlar xalqlariga arab tilini oʻrgatishda asosiy darslik vazifasini oʻtagan.

“Kitob al turk” (“Turk tilini tushunish kitobi”) Ispaniyaning Andaluziya viloyatidagi Grenada shahrida tugʻilib, Misrda yashagan, aslida Afrikaning berber qabilasiga mansub Asruddin Abu Hayen Andalusning (1256-1345) 60ga yaqin asari boʻlib, bularning 15 tasigina bizgacha yetib kelgan, ularning baʼzilari turkiy tillarga bagʻishlangan.

“Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turk”. Bu asarning muallifi, chop qilingan joyi va vaqti nomaʼlum, ammo baʼzi maʼlumotlarga qaraganda, “Kitob al idrok”dan keyin yozilgan. Demak, “Attuhfa” XVI asrga oid. U 1891-1892 va 1931 yillarda Qohirada 40 marta nashr kilingan. Kitobning asl nusxasi Istambuldagi Boyazit machitining Validdin Afandi kutubxonasiida saqlanmoqda.

Arab tilshunoslari ayniqsa leksikografiyaga jiddiy ahamiyat berganlar va juda koʻp lugʻatlar yaratganlar. Bagʻdod maktabi vakili hind Sagʻani (1181-1252 yy.) tuzgan va “Toʻlqinlar toshqini” deb nomlangan 20 tomlik lugʻat, Feruzobodiy (1329-1414 yy.) tuzgan va “Qomus” deb atalgan 60 tomlik lugʻat, misrlik ibn Mansur (1232-1311 yy.) tuzgan noyob soʻzlar lugʻati shular jumlasidandir. Arab leksikografiyasida lugʻatlar mazmuniga koʻra 6 guruhga boʻlinadi: 1.Toʻliq izohli lugʻatlar. 2. Mavzuviy lugʻatlar. 3. Sinonimlar lugʻati. 4. Noyob soʻzlar lugʻati. 5.

O'zlashgan so'zlar lug'ati. 6. Tarjima lug'atlari. Arab lesikografiyasi sharq mamlakatlariga, keyinroq Yevropa mamlakatlariga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Lug'at yaratish borasida arablar o'z ona tillaridan tashqari fors, mo'g'ul, turkiy tillar masalalari bilan ham shug'ullanganlar.

## O'RTA OSIYODA TILSHUNOSLIKNING RIVOJLANISHI

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda milliy tafakkur yuqori darajaga ko'tarildi. Aynan ushbu davrda O'rta Osiyo juda ko'p fanlar poydevori, asosini yaratgan buyuk allomalar dunyoga kelgani bois u **birlamchi Uyg'onish davri** deb ham yuritiladi. Buyuk bobokalonlarimiz bo'lgan Abu Rayhon Beruniy, Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy kabi qomusiy olimlarning matematika, kimyo, geodeziya, astronomiya, tibbiyot, musiqa, tarix, falsafa kabi qator fanlar bo'yicha yaratgan asarlari jahonning durdona asarlari sifatida butun dunyoda e'tirof etiladi. Ushbu asarlar arab tilida yozilgani, tabiiyki, arab tilining amaliy qo'llanishi va rivojiga sezilarli ta'sir qilgan.

Ayni paytda buyuk allomalar tomonidan bevosita tilning fonetik, morfologik, sintaktik qurilishi, so'zning ma'no xususiyatlariga bag'ishlangan asarlar ham yaratilganki, bu O'rta Osiyoda tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qilmay qolmadi. Xususan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va o'z o'rnini egallashida hamda keyingi taraqqiyotida buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Biroq Navoiygacha bo'lgan davrda yaratilgan barcha ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar fors tilida yozilgani bois O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanish va rivojlanish davrini 2 davrga:

- Navoiygacha bo'lgan davr
- Navoiydan keyingi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Xususan, Navoiygacha bo'lgan davrda O'rta Osiyoda tilshunoslikka oid quyidagi asarlar yaratilgan:

**Abu Nasr Forobiy** (873-930 yy.) – "*Fanlar tasnifi*" asarida fonetika, morfologiya, sitaksis, grammatika, orfografiya, orfoepiya, stilistika masalalarini yoritgan. Nutq tovushlarini unli-undoshlarga ajratadi, ularning hosil bo'lishi,

xususiyatlarini tavsiflaydi. Soʻz maʼnolarini tasniflaydi, sodda va qoʻshma soʻzlarni ajratadi, arab tilidagi turdash va atoqli otlar, son kategoriyasi, feʼl zamonlari, soʻz birikmasi va soʻzlarning birikishi haqida fikrlar bildiradi. U grammatikani toʻgʻri yozish sanʼati, deb baholaydi, soʻzlarni yozish qoidalari, sheʼr yozish oʻlchovlari haqida dastlabki maʼlumotlarni beradi.

**Abu Rayhon Beruniy** (937-1048 yy.) – matematika, kimyo, astronomiya, geografiya, geometriya, tarix, musiqa, tilshunoslik boʻyicha 150dan ortiq durdona asarlar yaratgan. (“Oʻtmish avlodlar yodgorligi”, “Hindiston tarixi”). Ular orasida “Saydana” bevosita tilga oid boʻlib, 29 bob, 1116 misradan iborat. Unda 4500 dan ortiq dorivor oʻsimliklarning 8 tildagi nomlari izohlangan.

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037 yy.) – Sharq olamida “Shayx ur-raisi”, Gʻarbda “Avitsenna” nomlari bilan mashhur boʻlgan, koʻp asrlar davomida jahon tibbiyot ilmining asosi boʻlgan “Tib qonunlari” kitobi muallifi, shuningdek, “Kitabi al milh finnahv” (“Oʻtkirlik sintaksisda ekanligi”), “Kitob lisonul arab”, “Asbobi xudut al huruf” (“Tovushlarning chegaralanish sabablari”) kabi tilshunoslikka oid asarlar yaratgan.

Allomaning fikricha, tovush havoning toʻlqinsimon harakati natijasida hosil boʻladi, fizikaviy (*savt*) va nutqiy (*harf*) tovushlari mavjud. U arab tilidagi 3ta unli, 28ta undosh borligini qayd etadi va undoshlarning har birini mukammal tavsiflaydi. Ibn Sinoning tovushlar artikulyatsisi, nutq aʼzolari, unli va undoshlar haqidagi fikrlari fonetika sohasiga qoʻshilgan salmoqli hissadir.

**Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshgʻariy** (XI asr) Qoshgʻarda tugʻilgan, Samarqand, Buxoro, Nishopur va Marv shaharlarida oʻqigan, Bagʻdodda arab adabiyoti, tilshunosligi, tarixi, tabiiy fanlar boʻyicha oʻz malakasini oshirgan. U turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi hisoblangan mashhur «Devonu lugʻatit turk» («Turkiy soʻzlar devoni») asari orqali turkiy tillarning leksikologiyasiga asos soldi, turkiy tillarning qiyosiy grammatikasini yaratdi.

“Devon”ning faqat bir nusxasi 1914 yilda Turkiyada topilgan. Bu kitob kotib Muhammad bin Abu Bakir Damashqiy tomonidan 1265-66 yillarda M.Qoshgʻariyning oʻz qoʻli bilan yozgan nusxasidan koʻchirilgan. Shu nusxa

asosida 1905-1917 yillarda Turkiyada “Devon”ning uch jildi nashr qilingan. 1928 yilda Karl Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan va Leypsigda chop etilgan; Bosim Atalay tomonidan turk tiliga o‘g‘irilib, 1939 yilda Anqarada chop etilgan; Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan va 1960-1963 yillarda Toshkentda chop etilgan. «Devon»ning muqaddima qismida turkiy xalqlarning etnografiyasi, lahjalari haqida ma’lumotlar berilgan, lug‘at qismida esa 9 mingga yaqin turkiy so‘zlar arab tiliga tarjima qilingan, ushbu so‘zlarning fonetik, semantik, grammatik xususiyatlari misollar yordamida izohlangan.

Koshg‘ariy o‘z lug‘atida tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari haqida fikr yuritadi, tovushlarni harflardan qat’iy farqlaydi, arab yozuvidagi harflarning turkiy tillarda mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini aytib, arab yozuviga yangi belgilar kiritadi. Arab yozuvidagi 18 harfdan 7tasi ustiga maxsus qo‘shimcha belgi qo‘yish orqali 25 taga yetkazadi. Natijada turkiy tillardagi 25 ta tovush yozma ifoda shakliga ega bo‘lgan. Alloma undoshlarning jarangli-jarangsiz, qattiq-yumshoq, sodda-murakkab bo‘lishi, undoshlarning ketma-ket va takror kelishi, singarmoniya, tovush tushishi, almashinishi, assimilyatsiya, metateza, reduksiya kabi fonetik hodisalarga ham to‘xtalib o‘tgan.

Koshg‘ariy o‘z lug‘atidagi barcha so‘zlarni leksikolog, semasiolog, leksikograf sifatida chuqur o‘rganib, ko‘p ma’nodlilik, shakldoshlik, ma’nodoshlik, zid ma’nodlilik hodisalari, ma’no ko‘chishining 4 xil usullari, so‘z ma’nosining kengayishi va torayishi hodisalari haqida fikr yuritadi, har bir hodisani misollar yordamida izohlaydi. Aytish joizki, jahon miqyosida hech bir til vakili o‘z lug‘at boyligini Mahmud Koshg‘ariychalik keng har tomonlama o‘rganib chiqmagan va chuqur tahlil qilmagan edi. Uning bugungi kungacha topilmagan «**Javohirun nahv fi lug‘atit turk**» («Turkiy tillar sintaksisining javohirlari») asari ham Koshg‘ariyning o‘z zamonasining buyuk tilshunos olimi ekanligidan dalolat beradi.

**Abul Qosim ibn Umar az Zamaxshariy** (1075-1143yy.). «Ustod ul-arab va-l ajam» (arablar va g‘ayri arablar ustoz), «Faxri Xorazm» deb sharaflangan O‘rta Osiyolik allomadir. Yanada chuqur bilim olish maqsadida u Isfaxon, Bag‘dod,

Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz, Iroq kabi shaharlarda tahsil oladi. Tinimsiz o‘qish-o‘rganish, izlanish natijasida o‘z zamonasining yetuk olimiga aylanadi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jug‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fikh va qiroat ilmiga oid asarlar yozgan. Xususan, uning Makkada 1,5 yil davomida yaratgan arab grammatikasiga oid «**Al-mufassal**» (1121 y.) kitobi alohida o‘rin tutadi. U arab tilining morfologiyasi va sintaksisiga oid tadqiqot ishi bo‘lib, musulmon olamida juda mashhur bo‘lgan va yuksak baholangan.

### **Zamaxshariyning asosiy asarlari:**

- «**Muqaddimat ul-adab**» - 5 bo‘limdan iborat, unda so‘zlar ism (ot), fe‘l, bog‘lovchi, ot o‘zgarishlari (turlanishi) va fe‘l o‘zgarishlari (tuslanish) ga bo‘lib beriladi. Asar fors, eski chig‘atoy (o‘zbek), mo‘g‘ul, turk, keyinchalik nemis, fransuz va boshqa tillarga o‘girilgan. Asar qo‘lyozmasi O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.
- «**Alfoiq fi g‘arib il-hadis**» («Hadisdagi notanish so‘zlarni o‘zlashtirish») - qiyin so‘zlarning ma‘nolari sharhlangan lug‘at.
- «**Asos ul-balog‘a**» («Chechanlik asoslari») - bu asar ham lug‘atshunoslikka oid.

## **ALISHER NAVOIY VA UN DAN KEYINGI DAVR**

### **TILSHUNOSLIGI**

XV asrning 2- yarmida O‘rta Osiyoda yetishib chiqqan buyuk mutafakkir, she‘riyat sultoni, o‘zbek adabiy tilining himoyachisi va targ‘ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501) tilshunoslik tarixida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biri. “Malikul shuaro” deb sharaflangan she‘riyat sultoni o‘zining turkiy tilda yaratgan asarlari bilan o‘zbek tilining amaliy rivojiga, lisoniy qarashlari aks etgan tilshunoslikka oid asarlari bilan tilshunoslik fanining shakllanishiga katta xizmat qildi. Alisher Navoiyning «**Muhokamat ul-lug‘atayn**» (1499) asari 2 til – o‘zbek va fors tillarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mazkur



tillarning umumiy va farqli xususiyatlari tahlil qilingan, mazkur tillar haqida muhim ma'lumotlar beriladi.

Mazkur asarda til va tafakkur orasidagi munosabat, tillarning kelib chiqishi, soʻz maʼnosi, soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari, soʻzlarning yasalish imkoniyatlari, morfologik kategoriyalar, soʻzning va tovushning nutqdagi oʻrni va ahamiyati kabi hodisalarni keng tahlil qiladi. Oʻzbek va fors tillarini muhokama qilish orqali oʻzbek tilining adabiy-badiiy asarlar yaratishga mos ulugʻvor til ekanligi, til boyligi va imkoniyatlari, istalgan, xususan, fors tili bilan bemalol raqobat qila olishi va hatto oʻzib keta olishi mumkinligini tasviriylik imkoniyatlari nuqtai nazaridan (jumladan, 100ta feʼl misolida) asoslab bergan. Navoiyning ushbu asari nafaqat oʻzbek tilining nufuzini koʻtarishga, balki qiyosiy tilshunoslikka va tilshunoslik nazariyasiga ham katta hissa qoʻshgan ilmiy asar hisoblanadi.

## **Navoiydan keyingi davrda yaratilgan asarlar**

Navoiy dahosi oʻz zamonasidayoq tan olingan va asarlari har tomonlama oʻrganila boshlangan edi. Maʼlumki, Navoiy dunyoda eng koʻp miqdorda - 26 ming soʻz ishlatgan buyuk ijodkor boʻlib, uning asarlari oʻtkir falsafiy gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan. Ushbu dunyoviy ahamiyatga ega boʻlgan ulkan ilmiy va adabiy merosni oʻrganish, falsafiy-lisoniy asarlarini tahlil qilish, Navoiy ishlatgan soʻzlarning maʼnolarini izohlash, ularning maʼnoviy qamrovini, matndagi quvvatini ochib berish va oʻzga tillarga tarjima qilish kabi ishlar XV asrdan boshlab filologik tadqiqotlar va leksikografik ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi boʻlib qoldi. Shunga koʻra shu davrdan boshlab, koʻplab lugʻatlar yaratila boshlandi.

Bu lugʻatlar orasida Eron shohi Nodirshohning kotibi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Nodi al Husayn as Safaviy Mehdixon - qisqacha **Mirzo Mehdixonning** (XVIII asr) «**Sangloh**» (1760 y.) asari alohida ahamiyatga ega. Oʻzbek tilining ilk grammatikasi deb hisoblangan mazkur asarda nafaqat

leksikografiya, balki leksikologiya, grammatika, morfologiya va sintaksis masalalari bo'yicha ham fikr yuritiladi. Muallif o'zbek tilidagi 5 ta kelishik shaklini ko'rsatib o'tadi, kishilik olmoshlarini mustaqil olmoshlar deb, ko'rsatish olmoshlarini ishora olmoshlari deb ataydi. Asarning lug'at qismida, asosan Navoiy, shuningdek, Lutfiy, Bobur she'riyatidagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosi izohlangan va fors tilidagi tarjimasi berilgan.

«**Maboni ul-lug'at**» “Sangloh”ga ilova qilingan bo'lib, 2ta: muqaddima va tarsif (grammatika) qismlaridan iborat. “Muqaddima”da kitobning yozilish sabablari bayon etilgan, arab va o'zbek tillari qiyoslangan, o'zbek shevalari haqida ma'lumotlar berilgan. Tarsif qismi esa 6 bo'limdan iborat bo'lib, o'zbek tilida fe'lning turli nisbat va zamon shakllari, fe'llarning vazifaviy shakllari, fe'l mayllari, fe'llarning yasalishi, ko'makchi fe'llar, so'zlarning imlosi, fe'l yasovchi qo'shimchalar, olmoshlar, ularning turlari, o'zbek tilidagi 5ta kelishik shakli (bosh kelishikdan tashqari ) haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Muallif o'z asarini o'zbek tilining 1-ilmiy grammatikasi deb ataydi. Bu davrda bir qator lug'atlar ham yaratilgan:

- “**Abushqa**” nomi bilan mashhur bo'lgan muallifi noma'lum “**Chig'atoy turk**” **lug'ati** (1500 y.). U 1862 yilda venger olimi Vamberi tomonidan chop ettirilgan.
- Hirotiyning “**Badoyi ul-lug'at**” asari, Navoiy asarlaridagi so'zlar tavsiflangan 1000 so'zlik lug'at.
- Fazlullaxonning “**Lug'ati turkiy**” asari (XVI asr), 1925 yilda Kalkuttada nashr etilgan.
- Fatx Alixon Katoriyning “**Kitobi lug'ati atrokiya**” asari, unda 8000ta so'zning turk va fors tillaridagi tarjimasi berilgan.
- Shayx Sulaymon Buxoriyning “**Lug'ati chig'atoyi va turki usmoni**” lug'ati. U 1828 yilda Istambulda chop etilgan bo'lib, 92 ta o'zbek qabilasi va 100ga yaqin shoirlarning asarlari haqida ma'lumot berilgan.

## **YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRIDAGI TILSHUNOSLIK**

XV asrdan XVII asrning boshlarigacha bo‘lgan davr G‘arbiy Yevropada uyg‘onish (renessans) davri deb ataladi. Feodalizm o‘zining eng yuqori taraqqiyot darajasiga chiqqan, kapitalizm endigina rivojlana boshlagan bu davrga kelib, arman, fors, o‘zbek, hungar, yapon, koreys, ispan, niderland, fransuz, ingliz, rus, ukrain, portugal, nemis, polyak, chex, auten, meksika tillari rivojlana boshlagan edi. XV-XVI asrlarda Yevropaliklar Shimoliy Amerika, Hindistondagi qator tillar, chunonchi, indoneziya, xitoy, arab, fors, turk, manchjur tillari bilan tanishdilar. Olingan ma’lumotlar asosida fan olamiga ma’lum bo‘lgan barcha tillarning kartotekalari tuzildi va tillar klassifikatsiya qilindi.

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

- Konfutsiy – Qadimgi Xitoyning mashhur faylasufi
- Neogrammatika – grammatikadagi yangi yo‘nalishlar
- Vedalar – induizm dinining asosiy muqaddas kitoblari
- Sanskrit – ishlangan, mukammal
- Prakrit – oddiy, tabiiy
- Panini – Qadimgi Hindlarning mashhur tilshunosi
- Antik – qadimgi
- Aleksandriya – qadimgi grek ilm markazi
- Analogiya – o‘xshashlik, mutanosiblik
- Anomaliya - nomutanosiblik
- Turonlar – qadimgi turkiy qavmlar

“Devonu lug‘otit turk” – turkiy tillarga tegishli 9 000 ga yaqin so‘zning lisoniy xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi izohli lug‘at.

### **Adabiyotlar:**

1. Кондрашев Н.А. История лингвистических учений. – М.,1979.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T., 1972.
3. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 1974.

4. Baskakov N.A. va b. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
5. Щербак А.М. Сравнительная типология тюрских языков. – Л., 1970.
6. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. -М., 1975.
7. Bo‘ronov Sh.B. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – T., 1973.
8. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002.
9. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007.
10. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2016.
11. Ломтев Т.П. Современное языкознание и структурная лингвистика. В кн: “Теоритическое языкознание”. – М., 1964.
12. Левицкий Ю.А. Общее языкознание. – М., 2009.
13. Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М., 2007.
14. Umarxo‘jaev M. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2010.

## 2-MA'RUZA

### VILGELM FON GUMBOLDT – UMUMIY TILSHUNOSLIK FANI ASOSCHISI. QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIK VA BOSHQA TA'LIMOTLAR

#### REJA:

1. Yevropada Uyg'onish davridagi tilshunoslik.
2. XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi.
3. Vilgelm fon Gumboldt - umumiy tilshunoslik fanining asoschisi.
4. Tilshunoslikda yuzaga kelgan turli ta'limotlar:
  - Tilshunoslikda naturalizm ta'limoti.
  - Tilshunoslikda psixologizm ta'limoti.
  - Yosh grammatikachilar maktabi qarashlari.
  - Ferdinand de Sossyurning sotsiologik ta'limoti.
5. XIX asrdagi rus tilshunoslik maktablari
6. Ctruktural lingvistika va uning maktablari

**Asosiy tushunchalar:** Uyg'onish davri tilshunosligi, komparativistika, mantiqiy grammatika, germanistika, antinomiya nazariyasi, naturalizm ta'limoti, bobo til, psixologizm ta'limoti, sotsiologizm ta'limoti, lingvistik maktablar, til ijtimoiy hodisa, til va nutq, sinxroniya va diaxroniya, funksional lingvistika, deskriptiv lingvistika, distributsiya, glossematika.

#### YEVROPADA UYG'ONISH DAVRIDAGI TILSHUNOSLIK

XV asrdan XVII asrning boshlarigacha bo'lgan davr G'arbiy Yevropada uyg'onish (renessans) davri deb ataladi. Feodalizm o'zining eng yuqori taraqqiyot darajasiga chiqqan, kapitalizm endigina rivojlana boshlagan bu davrga kelib,

arman, fors, o‘zbek, hungar, yapon, koreys, ispan, niderland, fransuz, ingliz, rus, ukrain, portugal, nemis, polyak, chex, auten, meksika tillari rivojlana boshlagan edi. XV–XVI asrlarda Yevropaliklar Shimoliy Amerika, Hindistondagi qator tillar, chunonchi, indoneziya, xitoy, arab, fors, turk, manchjur tillari bilan tanishdilar. Olingan ma’lumotlar asosida fan olamiga ma’lum bo‘lgan barcha tillarning kartotekalari tuzildi va tillar klassifikatsiya qilindi.

Bu davrda ham antik davr adabiyotlarini, lotin va grek tillarini o‘rganish davom ettirildi. Jyul sezar Skaliger “Lotin tili asarlari haqida” (1540), R. Stefanus “Lotin tili xazinasi”(1553), G. Stefanus “Grek tili xazinasi” asarlarini yaratdi. Ayni vaqtda semit tillari, Yevropa xalqlari tillari grammatikasiga oid asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Uollsning “Ingliz tili grammatikasi (1653)”, Eduard Rudolfning “Rossiyskaya grammatika”si (1696) dunyoga keldi, fransuz, italyan tillaridan lug‘atlar nashr qilindi. Fransuz gumanisti G.Kastelleusning “Tillarning qarindoshligi haqida (1593)” nomli traktati yozildi. Yustus Skaliger (1540-1609) tillar tasnifi bilan shug‘ullanib, Yevropa tillarini 11 ta asosiy tilga ajratdi va ulardan 4 tasini “Til onalari” (materi-yazyki) deb atadi.

Qayd etilganidek, bu davrda tillarni o‘rganish asosida ko‘p tomli lug‘atlar dunyoga keldi. Jumladan, Pyotr Simon Pallasning 1786 –1791 yillarda Peterburgda chop etilgan “Barcha tillar va shevalarning qiyosiy lug‘ati” 4 tilli lug‘atida Osiyo, Yevropa, Afrika, Amerikadagi 272 tilga oid ma’lumotlar, ispaniyalik Lorenzo Gervasning 1800 –1804- yillarda Madridda chop etilgan “Ma’lum xalqlar tillarining katalogi”da 307 tilga oid, nemis olimlari I.K.Adelung va I.S. Faterlarning “Mitridat yoki umumiy tilshunoslik” lug‘atida 500 tilga oid ma’lumotlar keltirilganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Demak, uyg‘onish davrida juda ko‘p jonli tillar – ispan, fransuz, venger, ingliz, polyak, chex, niderland tillarining normativ grammatikalari va lug‘atlar yuzaga keldi.

Biroq lotin tili grammatikasi umumiy grammatika sifatida tan olinib, Yevropadagi jonli tillarning grammatikasiga tadbiiq qilindi. Bu tilni o‘rganishni mantiqiy tafakkur qoidalarini bilishning asosi, barcha tillardagi grammatik kategoriyalarni esa umumiy mantiqiy kategoriyalarning namoyon bo‘lishi sifatida

tushunish kuchaydi. Mantiqiy grammatika yaratish g'oyasi asosida 1660 yilda Parij yaqinidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Antuan Arno va fransuz tilshunosi Klod Lanslo tomonidan **“Umumiy ratsional grammatika”** yaratildi. Por-Royal grammatikasi nomi bilan shuhrat qozongan, qadimgi yunon, yahudiy, lotin va fransuz tillari materiallari asosida yaratilgan ushbu asar o'z oldiga barcha tillarga xos umumiy prinsiplar va farqlarning sabablarini aniqlash vazifasini qo'yadi.

Por-Royal grammatikasi 2 qism: fonetika va grammatika qismlaridan iborat bo'lib, 1- qismning 6 ta bobi tovush va harf, urg'u va bo'g'in masalalariga, oxirgi bobi har qanday tipdagi tillarning o'qitish metodiga (uslubiga) bag'ishlangan. Kitobning 2-qismi 24 ta bobdan iborat bo'lib, shulardan 23ta bobi morfologiyaning savol va muammolariga hamda sintaksis yoki so'zlarning tipologik tuzilishi – konstruksiyalari hamda o'zaro birlashishi haqidadir. Ushbu grammatika “Aql asoslariga qurilgan va aniq hamda tabiiy usulda bayon qilingan gapirish san'atini asoslab beradigan umumiy grammatika”, ya'ni universal grammatika deb ataldi. 1675-yilda A.Arno va P. Nikollarning “Mantiq yoki fikrlash madaniyati” degan asari ham yaratildi.

## **XIX ASRDA QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIKNING YUZAGA KELISHI**

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi. Ushbu asrning 1-choragida turli tillar haqida dalillar yig'ish, to'plangan ma'lumotlarni qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish avj oldi. Olimlar ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligiga e'tibor qaratgan bo'lsalar-da, ushbu o'xshashliklarning asl sababalari ilmiy jihatdan yoritilmagan edi. Aynan XIX asrga kelib, deyarli bir vaqtda turli mamlakatdardagi tilshunoslar tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalari, ya'ni tillar bir umumiy bobotildan kelib chiqqanligi, keyinchalik esa ularning har biri mustaqil rivojlanganligi bilangina

tushuntirish mumkin, degan xulosaga keldilar. Bunga tilni tarixiylik jihatidan o'rganish, xususan, jonli tillarning o'tmishini o'rganish, sanskrit bilan yaqindan tanishish katta turtki bo'ldi.

Tillarni tarixiy jihatdan o'rganish va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishida ingliz sharqshunosi va huquqshunosi **Vilyam Jonsning** (1746-1794) sanskrit tili bilan yunon va lotin tillari o'rtasida yaqinlik borligi haqidagi fikrlari, nemis olimi **Fridrix Shlegel** (1772-1829) tomonidan yaratilgan "**Hindlarning tili va donoligi**" asari zamin bo'lib xizmat qildi. Ushbu asarda sanskrit tilining nafaqat lug'at tarkibi jihatidan, balki grammatik tuzilishi jihatidan ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligi, ularning bir umumiy asosdan kelib chiqqanligi qayd etilgan edi. Bu juda ko'p jonli va qadimiy tillarni tarixiy va qiyosiy jihatdan o'rganilishiga va qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishiga, ayni paytda tilshunoslik fanining ham tarixiy, ham ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan mustahkam asosga ega bo'lishiga olib keldi.

Qiyosiy-tarixiy metod o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganish hamda u yoki bu tilning tarixini, unda yuz bergan o'zgarishlarni, til taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib, tushuntirib berish vazifalarini qo'yadi. Ushbu metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi. Ularning ijodiy izlanishlari natijasida Hind-Yevropa tillari deyarli to'liq o'rganildi. Bu jarayon **4 davrga** bo'linadi:

1. Qiyosiy-tarixiy metod yaratilishidan to yosh grammatiklar maktabigacha bo'lgan davr (XIX asrning 1-choragi).
2. Yosh grammatiklar maktabi davri (1870-1890).
3. Yosh grammatiklardan F. De Sossyurgacha bo'lgan davr.
4. Sossyur ta'limotidan bugungi kungacha bo'lgan davr.

**Birinchi davrning** o'zi 2 bosqichdan iborat bo'lib, 1-bosqichda qiyosiy-tarixiy metod yaratilgan bo'lsa, 2-bosqichda umumiy tilshunoslik faniga asos solindi.



XVII asr tilshunoslari ratsionistlarning “aql inson faoliyatida yetakchi rol o‘ynaydi”, degan fikrini olib, uni tilga tadbiq qilganlar, ya’ni aqlga, mantiqqa aloqador bo‘lgan qonuniyatlarni tilga nisbatan qo‘llaganlar. Shuning uchun Por-Royal tadqiqotchilari tadqiqot ishlarini fransuz tilini tavsiflashdan boshlagan bo‘lsalar ham, o‘z fikrlarini dalillashda grek, lotin, hatto qadimgi yahudiy tili dalillariga ham murojaat qilganlar. XVII-XVIII asrlar davomida “ratsional” va “universal” grammatikalarning bir necha variantlari yaratilgan bo‘lib, ular falsafiy, mantiqiy grammatika deb ham yuritilgan. Ularning fikricha, gap mantig‘ida universal grammatikaning falsafiy asosi bo‘lgan ratsionalizm mavjud (ratsionalizm – aql).

### **Birinchi bosqichning asosiy namoyondalari:**

**Frans Bopp** (1791-1867) – buyuk nemis tilshunosi, Berlin un-ti professori, qiyosiy-tarixiy metod asoschisi. Asarlari: “Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash” (1816), “Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi” (3 tom, 1833-1852).

F.Bopp tillarning morfologiyasini qiyoslash asosida qarindoshligini isbotlashga harakat qilgan, hind-yevropa tillari atamasini olib kirgan. U yaratgan **agglyutinatsiya nazariyasiga** ko‘ra, so‘z o‘zartiruvchilar ilgari mustaqil qo‘llanib kelgan o‘zaklarning keyinchalik asosiy o‘zakka birikishidan, ya’ni agglyutinatsiyasidan kelib chiqadi. Masalan, shaxs-son affikslari olmosh o‘zaklaridan kelib chiqqan. Biroq u fonetikaga e’tibor qaratmadi, malay, polineziya va janubiy kavkaz tillarini ham Hind-Yevropa tillariga kiritib jiddiy xatoga yo‘l qo‘ydi.

**Rasmus Xristian Rask** (1787-1832) – daniyalik tilshunos, Asarlari: “Island tili bo‘yicha qo‘llanma” (1811), “Island tilining kelib chiqishi” (1818), “Frakiy tili haqida” (1822). Tillarni leksik jihatdan qiyosladi, germanistikaga asos soldi, slavyan tillari mustaqil tarmoq ekanligini isbotladi.

**Yakob Grimm** (1785-1863) – nemis tilshunosi. Asarlari: “Nemis grammatikasi ” (4 tom, 1819-1837), “Nemis tili tarixi” (1848). U german

tillarining tarixiy fonetikasini yaratdi, tildagi o'zgarish va taraqqiyotni tovushlarning o'zgarishida ko'rdi, jumladan, buyuk ko'chish qonuni asosida undoshlarning siljiganini isbotlab berdi. Xalq tarixini o'rganishda tilning taraqqiyotini asosiy deb bildi. Tilshunoslik metodologiyasiga tarixiylik tushunchasini kiritgani uchun u tarixiy grammatikaning asoschisi hisoblanadi. "Nemis tili tarixi" asarida: "Bizning tilimiz bizning tariximizdir. Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq bo'lgan guvoh bor. Bu - ularning tilidir. Til – inson ruhining guvohidir", - deb yozgan edi.

**Aleksandr Xristoforovich Vostokov** (1781-1864) – rus tilshunosi. Asarlari: "Slavyan tili haqida mulohazalar" (1820), "Rus grammatikasi" (1831), "Rumyansev muzeyidagi rus va slavyan qo'lyozmalarining tasviri", "Cherkov slavyan tili lug'ati" (1858-1861). U slavyan tillari tarixiy taraqqiyotini davrlashtirgan, shu oilaga mansub tillarni tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganishni boshlab bergan olimdir.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda ijod qilgan olimlar juda katta amaliy ish bajardilar. R. Rask skandinaviya tillarini, F. Bopp Yevropa tillari va qadimgi hind tilini, Ya. Grimm esa got-german tillarini tadqiq qilib, bu tillarning yagona oilaga mansubligini o'rganadi. Ushbu olimlar olib borgan tadqiqotlar komparativistika - qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishiga va tilshunoslik fanini mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

## **VILGELM FON GUMBOLDT – UMUMIY TILSHUNOSLIKNING ASOSCHISI**

**Vilgelm fon Gumboldt** (1767-1835) – buyuk nemis filosofi, Berlin universiteti asoschisi, siyosatchi va davlat arbobi. U juda ko'p tillar (bask tilidan tortib, polineziya va indeeslarning tillarigacha) haqida ma'lumotga ega edi. U o'z asarlari va g'oyalari bilan tilning ilmiy nazariyasini yaratdi va umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. 1820 yilda «**Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o'rganish haqida**» Berlin akademiyasida qilgan ma'ruzasida til haqida alohida mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini o'rta

tashlaydi va uni asoslab beradi. U tillarning mustaqilligini tan olmaydigan, dunyo tillarini mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga qaratilgan umumiy grammatika – Por-Royal grammatikasini inkor qiladi.

Gumboldt hayotining so‘nggi yillarida yaratgan 3 tomli “**Yava orolidagi kavi tili haqida**”(1836-1840) asarining “Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma’naviy taraqqiyotiga ta’siri” deb atalgan kirish qismida o‘zining nazariy-falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi. U har bir xalqning tilida o‘sha xalqning tarixi, madaniyati va butun ruhiy dunyosi namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. “Til millatning ruhidir”, deydi u. Olim til va tilga yondosh hodisalar, til bilan bog‘liq jarayonlarni dialektik birlikda o‘rganish zarurligi, til hodisalari dialektik zidlik asosida qurilganligini bayon etadi va **til antinomiya** haqidagi g‘oyasini ilgari suradi. U yaratgan umumiy tilshunoslikni til falsafasi deb atash mumkin.

#### **Gumboldt ta’limotining eng muhim jihatlari:**

- til shakl (forma)dir, u bir-biri bilan aloqador, o‘zaro zidlik asosida bog‘langan sistemani tashkil etuvchi nutq tovushlaridan tashkil topadi;
- til formasi moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan tashkil topadi;
- tilning tashqi formasi uning materiyasi, ya’ni tovush tizimidir;
- tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinishi bo‘lib, xalq ruhining so‘zda ifodalanishidir;
- til so‘z va grammatik qoidalardan iborat, so‘z esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramzdir;
- u til va nutqni farqlaydi va so‘zning nutqdagi qiyofasini uning grammatik formasi, deb ataydi.

Vilhelm fon Gumboldt ta’rificha, til murakkab, bir-biriga qarama qarshi bo‘lgan sifat va xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir. Shuning uchun ham, olimning fikricha tilni o‘rganishda antinomiya (qarama-qarshilik) metodini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

## **Tilning tabiatiga xos asosiy antinomiylar**

1. Til bilan tafakkur bir-birini taqazo etadigan ajralmas hodisa, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til bo'lmaydi.

2. Til va nutq antinomiylasi: til faoliyat bo'lsa, nutq shu faoliyat ning, ya'ni nutqning mahsulidir.

3. Nutq va tushunish antinomiylasi, so'zning haqiqiy ma'nosi faqat individning nutqida o'z aksini topadi.

4. Ob'ektiv va sub'ektiv omillarning o'zaro munosabati: har bir individ jamiyati tomonidan meros qoldirgan tildan foydalanadi, ayni paytda har bir so'zlovchi o'z nutq faoliyati bilan tilga sub'ektiv hissa qo'shadi va tilning taraqqiyotida ishtirok etadi.

5. Tilda zaruriylik va erkinlik antinomiylasi. Tildagi qonun-qoidalar hamma uchun zaruriy, ammo individlar erkin holda tilga o'z hissalarini qo'shadilar, ammo individlarning erkin harakatlari chegaralidir.

6. Tilda turg'unlik va harakat antinomiylasi. Inson tili dinamik hodisa sifatida o'zgarib turadi, chunki til xizmat qilayotgan jamiyatni o'zi har doim harakatda va o'zgarishlarga moyil. Shu bilan birga til nixoyatda turg'un hodisadir.

Biroq Gumboldt tildagi milliylik xususiyatini ko'ra olmagan, til ruhga xos bo'lgan qonuniyatlar asosida rivojlanadi, deb bilgan. **Ikkinchi bosqich** Avgust Shleyxer va German Shteyntalning naturalistik ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, XIX asrning 50-60-yillarni o'z ichiga oladi.

## **TILSHUNOSLIKDA NATURALIZM TA'LIMOTI**

**Avgust Shleyxer** (1821-1863) - nemis olimi, naturalizm ta'limoti asoschisi. U botanika va falsafa fanlarini ham o'rgangan, 1858 yildan Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zosi. Asarlari: "Nemis tili" (1860), "Hind-German tillari qiyosiy grammatikasining kompendiumi" (1861), "Darvin nazariyasi va til haqidagi fan"(1863), "Insonning tabiiy tarixi uchun tilning ahamiyati haqida"(1865). U Hind-Yevropa tillarining umumiy masalalari, german, slavyan, boltiq tillari bilan shug'ullandi, litva tilini o'rganib, jonli nutq bo'yicha tadqiqot

olib bordi. Eng mashhur asari “Hind-German tillari qiyosiy grammatikasining kompendiumi” bo‘lib, unda qadimgi hind-yevropa tilini – bobo tilni qayta tiklab, uning har bir shahobchasi qanday rivojlanganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Shleyxer naturalizmining asosiy mohiyati shundaki, u tilni jonli, tabiiy organizm, deb hisoblaydi. Organizm terminini to‘g‘ri – biologik ma‘noda talqin qiladi. Shleyxerning naturalistik qarashlari Darvinnig “Turlarning paydo bo‘lishi va tabiiy tanlash” (1859) asaridan so‘ng yanada kuchaydi. Uning fikricha, “Tillar insonning xohishidan tashqari paydo bo‘lgan, o‘sgan va ma‘lum qonunlar asosida rivojlanadigan tabiiy organizmdir. Ular o‘z navbatida qariydi va o‘ladi.” “Tillar tovush materiyasidan tashkil topgan tabiiy organizmlardir”. Shleyxer tilning ijtimoiy mohiyatiga yetarli ahamiyat qaratmaydi. Shuningdek, Shleyxer tillar “hayoti” va taraqqiyotini 2 davrga: taraqqiyot davri va inqiroz davriga bo‘ladi va tilning taraqqiyoti uning tanazzulidir, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu g‘oyalar, albatta, tilshunoslar tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi. Biroq uning tilni bir butun sistema deb qarashi tilni sistema va struktura, deb tushunishga imkon berdi.

### **TILSHUNOSLIKDA PSIXOLOGIZM TA‘LIMOTI**

**Geyman Shteyntal** (1823-1899) - Berlin universiteti professori, V.Gumboldt va psixolog Iogann Gerbertning shogirdi, psixologizm ta‘limotining asosiy namoyandasi. Asarlari: “Tillarning tasnifi til g‘oyasining taraqqiyoti sifatida” (1850), “Grammatika, mantiq va psixologiya” (1851), “Til qurilishining eng muhim tiplari xarakteristikasi”(1860), “Psixologiya va tilshunoslikka kirish”(1875), “Falsafa, tarix, psixologiya va ularning o‘zaro munosabati” (1863). Tilshunoslikdaga psixologizm oqimi naturalizmni qattiq tanqid ostiga oladi, ular tilning taraqqiyotini shaxs tafakkuri, ruhiyatidagi taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisobladilar. Shteyntal ta‘limotidagi eng muhim g‘oya nutq, tilni tafakkur quroli, fikr ifodalash vositasi, deb qaralganligi, biroq psixologizm tilning ijtimoiy hodisa ekanligini inkor qiladi.

**Aleksandr Afanas‘yevich Potebnya** (1835-1891)– rus va ukrain filologi, Rossiyada psixologizm oqimi vakili, Xarkov universiteti professori, Rossiya FA

muxbir a'zosi. Asosiy asarlari: "Fikr va til" (1862), "Rus grammatikasidan lavhalar" (4 tom, 1874) . Potebnya tilshunoslikning umumfalsafiy masalalari, sintaksis, semantika, etimologiya, fonetika, dialektologiya, folklor, etnografiya bilan shug'ullangan. U tilni xalq ijodi, mahsuli deb hisoblaydi. Til o'z ob'ektiv qonuniyatlariga egaligini ta'kidlaydi, til hodisalarining sababini psixologiyadan emas, balki tilning o'zidan qidiradi. Uning fikricha, til doimiy faoliyatdir, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi umumiylik har ikkovining bir xalqqa, millatga tegishliligi bilan belgilanadi. Har qanday so'z 3 elementdan: tovush, tushuncha va ma'nodan tashkil topadi. Potebnya so'zning haqiqiy hayoti nutqda amalga oshishini, so'zning ma'nosi esa faqat nutqda reallashishini ta'kidlaydi va so'zning nutqda har gal turlicha ma'no ifodalashini qayd etadi.

### **YOSH GRAMMATIKLAR MAKTABI QARASHLARI**

XIX asrning oxirgi choragida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda bir guruh yosh tilshunoslarning "Yosh grammatiklar" deb atalgan yangi bir oqimi paydo bo'ldi va ular keksa avlod tilshunoslarini tanqid qila boshladilar. Ular klassik va bobo tillarni o'rganishni tanqid qilib, ya'ni til tarixini tan olmasdan, jonli tillarni o'rganishga chaqirdilar. A.Leskin (1840-1915), K.Brugman (1849-1919), G.Ostgof (1842-1907), G. Paul (1846-1921), B.Delbryuk (1842-1912) kabi Leypsig universiteti olimlari, shuningdek, F. de Sossyur (1857-1913), F.F.Fortunatov (1848-1914), V.Tomson (1842-1927) singari mashhur tilshunoslar ham yosh grammatiklarga biroz yondashganlar. Yosh grammatiklar fikricha, til individual psixofiziologik faoliyat, tildagi barcha o'zgarishlar ayrim shaxslarning kundalik nutq faoliyatida vujudga keladi.

Yosh grammatikachilar tilning ikki xil faoliyati borligini uqtirar edilar. Bulardan biri tilning yakka (individual) faoliyati bo'lib, u tilda paydo bo'ladigan yangi hodisalarning analogiyaga asoslanishidan iboratdir. Analogiya (o'xshashlik) esa assotsiatsiya (uyushma) orqali yuz beradigan psixik hodisalardan kelib chiqadi. Tilning ikkinchi tomoni – bu tilning fiziologik faoliyati va uni tildagi fonetik o'zgarishlarda ko'rinishidir. Shuning uchun yosh grammatikachilar tilshunoslikda

yangi fonetik qonunlarni kashf qilish va tasvirlashga katta e'tibor berganlar. Yosh grammatikachilar til hodisalarini chuqur va mukammal o'rganish uchun tildagi ayrim hodisalarni boshqa jarayonlardan ajralgan holda o'rganishni tavsiya qilganlar. Shuning uchun ham ularning ta'limotida "atomizm" degan atama ishlatilgan.

Yosh grammatikachilar hind-yevropa tillari sohasida, ayniqsa, fonetika sohasida katta kashfiyotlar qilishdi. Ular aniq tillarning tarixiy fonetikasi va grammatikasida hamda dialektologik tadqiqotlarda o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Yosh grammatikachilarning fikricha, Hind-Yevropa tillarining naturalistik va mantiqiy tadqiqida juda ko'p tillararo hodisalar o'rganilgan, ammo so'zlovchiga – inson omiliga e'tibor kam berilgan. Yosh grammatiklar to'garagi faoliyati orqali qiyosiy-tarixiy tahlil metodlari, funksional-semantik grammatikaning muammolari o'rganildi. Tilni nafaqat individual psixologik, balki, madaniy-tarixiy jarayon ekanligiga aniqlik kiritildi.

## **FERDINAND DE SOSSYUR VA UNING SOTSIOLOGIK TA'LIMOTI**

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Ferdinand De Sossyur (1857–1913) – Jenevada tug'ilgan, shveysariyalik fransuz. Jeneva, Leypsig, Berlinda ta'lim oldi. 1878 yilda yigirma yasharlik F. De Sossyur "Hind-Yevropa tillaridagi dastlabki unli tovushlarning sistemasining tadqiqi" nomli ishi e'lon qilindi. 1881 yilda Leypsigda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1906 yildan Jenevada umumiy tilshunoslik kafedrasiga rahbarlik qildi va tadqiqotlari asosida ma'ruzalar o'qidi. F. de Sossyurning fanda mashhur bo'lgan eng yirik asari "Umumiy tilshunoslik kursi" deb ataladi. Ushbu asarni Sossyur vafotidan keyin 1916 yilda uning shogirdlari Sharl Balli va Albert Setselar o'z konspektlari asosida chop ettirishgan bo'lib, 1931 yilda nemis tilida, 1933 yilda rus tilida nashr ettirildi.

Sossyurning tilning ijtimoiy xususiyati haqidagi qarashlari tilshunoslikda keskin burilish bo'lishiga olib keldi. Xususan, uning "Til material emas, balki

formadir” degan fikri Praga, Kopengagen, Amerika struktural maktablarining shakllanishida asosiy omil bo‘ldi. Sossyur fikricha, insonning nutq faoliyati ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, matematika va boshqa fanlar bilan bog‘liq. Sossyur til bilan nutq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni e’tirof etsa-da, ularni til lingvistikasi va nutq lingvistikasi tarzida alohida o‘rganishni, bunda tilshunoslik asosan til lingvistikasi bilan shug‘ullanishi, nutq lingvistikasi esa fizika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarda o‘rganilishi kerak, deb hisoblaydi. U nutq faoliyatini o‘rganishda V. fon Gumboldt kabi antinomiya metodidan foydalanib, til va nutq, sinxroniya va diaxroniya, ichki va tashqi lingvistika antinomiylarini ilgari surdi.

### **Sossyur ta‘limotining muhim jihatlari**

1. Tilshunoslik fanining haqiqiy ob‘ekti – tildir. Tilni psixologiya, mantiq, fiziologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan emas, balki bevosita tilshunoslik fani asosida o‘rganish kerak.

2. Til sistem tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Til belgilari, hodisalari o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini belgilaydi va o‘zaro mantiqiy, zaruriy aloqaga kirishib, bir butunlikni – til sistemasini hosil qiladi.

3. Til g‘oya, fikr, ma’no tashuvchi belgilar sistemasidir. Til belgisi 2 tomonga: ifoda tomoni (ifodalovchi) va mazmun tomoni (ifodalanuvchi)ga ega shartli, ixtiyoriy, birlikdir. Ular moddiy va ruhiy tomonlar, ya’ni tovush va ma’no birligidan iborat bo‘lib, o‘zaro dialektik bog‘liqlikda bitta ijtimoiy vazifani bajaradi, fikr almashuvni – kommunikativ jarayonni ta’minlaydi.

4. Sossyur tilni ichki va tashqi lingvistikaga ajratadi va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Uning fikricha, ichki lingvistika tilning strukturasini, tashqi lingvistika esa tilni u yashaydigan real shart-sharoit - jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganishi kerakligini ta’kidlaydi. Aynan shu masalalar umumiy tilshunoslikning o‘rganish ob‘ekti hisoblanadi.

5. Sossyur tilda 2 aspektni: sinxroniya va diaxroniyani farqlaydi. Uning fikricha, til sistemasi va strukturasini o‘rganishda ayniqsa sinxron aspektning ahamiyati katta, tilshunoslik fanining bosh vazifasi til hodisalarining bugungi



kundagi holatini o'rganishdir va bu tilning tarixini, boshqa tillar bilan qiyosini o'rganishdan avval bo'lishi kerak.

6. Sossyur tilni til va nutqqa ajratadi. Til tildagi so'zlarning jami va nutqni qurish, tuzish qoidalaridir. Nutq esa til sistemasining so'zlashuvdagi yoki matndagi qo'llanishidir. Sossyur o'z fikrini isbotlash maqsadida shaxmat o'yiniga murojaat qilib, shaxmat o'yinining mazmunini shaxmat donalarining joylashishi va ularning yurish qoidalari tashkil etadi, biroq har bir shaxmatchi ulardan individual tarzda foydalanadi. Til nutqdan quyidagi 5 ta belgisiga ko'ra farqlanadi:

- 1) Til – ijtimoiy, umumiy, nutq esa individual hodisa.
- 2) Til sistem, nutq esa asistem hodisa.
- 3) Til potensial (yashirin imkoniyat), nutq esa real voqelik.
- 4) Til sinxron, nutq esa diaxron, tarixiy hodisa.
- 5) Til - mohiyat, nutq – hodisa.

7. Sossyur til va nutq birliklari orasidagi o'zaro bog'lanishni paradigmatic va sintagmatic munosabatga ajratadi. Paradigmatic munosabat til birliklarining bir paradigmaga, masalan, so'zlarning vertikal yo'nalishda turlanish yoki tuslanish qatoriga birlashishi va bosh, asosiga ko'ra farqlanishidir. Masalan, *kitob, kitobni, kitobning, kitobda, kitobdan* so'zlarining ma'nosi bosh kelishik shakliga ko'ra olinadi. Sintagmatic munosabatda esa til birliklarining o'zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishishi va gorizontal planda birikmalar hosil qilishi tushuniladi: *kitobning qadri, kitobni o'qish* kabi.

Paradigmatic munosabat til birliklarining nutqqacha bo'lgan til hodisasi bo'lsa, sintagmatic munosabat til birliklarining nutq jarayonidagi mantiqiy munosabatidir va u nutq hodisasi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr tilshunoslik fanida keskin burilishlar sodir bo'lgan davr bo'ldi. Yuqorida qayd etilgan oqimlar, mashhur tilshunos olimlarning qarashlari va faoliyatlari tilshunoslik fanining keng miqyosda rivojlanishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu o'rinda ayniqsa tilning sistemaliligi, til va nutq dialektikasi, tilning ijtimoiyligi g'oyalarini ilgari surgan Sossyur ta'limotining ahamiyati beqiyos. Sossyur ta'limoti tilshunoslikda nafaqat sotsiologik lingvistikaning

yuzaga kelishida, balki bir qator lingvistik maktablar va struktural lingvistikaning vujudga kelishida ham muhim omillardan biri bo'ldi.

## **XIX ASRDAGI RUS TILSHUNOSLIK MAKTABLARI**

### **MOSKVA LINGVISTIKA MAKTABI**

XIX asrning oxirlarida Rossiyada alohida lingvistik maktablar vujudga keldi. Ulardan biri Filipp Fedorovich Fortunatov (1848-1914) asos solgan Moskva lingvistik maktabi bo'lib, bu maktab tilshunoslik fanining taraqqiyotiga va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning Rossiyada rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. F.F. Fortunatov so'zlarni shakl tomonidan tasniflab, ularni o'zgaruvchi va shakli o'zgarmaydigan (grammatik shaklsiz, faqat so'z yasovchi shakllardan iborat) kabi turlarga tasniflaydi, ushbu so'z shakllarining so'z turkumlari va gap tarkibidagi o'rni haqidagi ta'limotlarni ilgari suradi.

Moskva lingvistik maktabida yaratilgan so'zning shakli hamda so'zning grammatik turlari, so'z turkumlarining ikki tomonlilik va gap to'g'risidagi ta'limotlar uning shogirdlari Shaxmatov, Peshkovskiy, Pokrovskiyalar tomonidan davom ettirildi. Bunga misol sifatida A.A. Shaxmatovning eng yirik asari "Rus tili sintaksisi" (1925-1927), A.M. Peshkovskiyning "Rus sintaksisining ilmiy yoritilishi" (1914), "Ona tili metodikasi, stilistika va lingvistika masalalari" (1930), M.M. Pokrovskiyning "Qadimgi tillar sohasida semasiologik tadqiqotlar" (1895) hamda "Semasiologiya metodlari to'g'risida" (1896) kabi asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

### **QOZON LINGVISTIKA MAKTABI**

Qozon lingvistik maktabining asoschisi rus va polyak tilshunosi Ivan (Yan) Aleksandrovich (Игнаусыс) **Boduen de Kurtene (Nesislav)** (1845-1929) avval Varshavadagi gimnaziya, so'ng Praga, Berlin, Laypsng, Vena, Berlinda tahsil olgan. Uning dastlabki "XVI asrgacha bo'lgan qadimgi polyak tili haqida" nomli asari 1870 yildayoq Leypsigda chop qilinadi. Bu ishi uchun unga magistrlik

darajasi va privat dotsent unvonini berishdi. 1874 yilda 29 yoshida “Rezyan shevalarining fonetikasini o‘rganish tajribasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Asosiy asarlari: “Tilshunoslik va tildagi ayrim umumiy mulohazalar” (1871), “Fonetik alternatsiyalarning mahorat nazariyasi” (1895), “XIX asr lingvistikasi yoki tilshunosligi” (1901), “Lingvistik maqolalar va aforizmlar (iboralar)” (1903), “Tilshunoslikka kirish” (1917).

U Qozonda 9 yil, Yuryevda 10 yil, Krakovda 5 yil, Peterburgda 18 yil ishladi. Peterburgda ishlagan paytda L.V.Shcherba, A.P. Barannikov, V.V.Radlov kabi mashhur tilshunoslarni, Varshavada ijod qilgan paytlarida esa V.Doroshevskiy, N.V.Krushevskiy singari olimlarni yetishtirgan. V.Doroshevskiy semasiologiya, leksikografiya va leksikologiya, til va tafakkur, axborot nazariyasi hamda so‘zlarning lug‘aviy tahlili kabi masalalar bilan shug‘ullangan ko‘zga ko‘ringan olim. N.V.Krushevskiy fonetikaning eng muhim vazifasi bobo tilning tovush sistemasini qayta tiklash emas, balki ma’lum tilning tovushlari harakterini, ularning o‘zgarish qonuniyatlarini, yo‘qolish va yangi tovushlarning paydo bo‘lish sharoitlarini o‘rganishdir, deb hisoblaydi.

Qozon maktabi vakillari bilan til faoliyatining psixik, fonetik tomonlari hamda fonologiya masalalari bilan shug‘ullanadi. U tilshunoslikka fonema nazariyasi va atamasini kiritdi. Uning shogirdi V.A. Bogorodiskiy eksperimental fonetika asoschilardan biri hisoblanib, Qozon universiteti qoshida Rossiyada birinchi bo‘lib fonetik laboratoriya tashkil qilgan, so‘zlardagi morfologik qayta bo‘linish, soddalashish, singarmonizm hodisalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan, turkiy tillar tadqiqi bilan ham shug‘ullangan.

### **PETERBURG LINGVISTIKA MAKTABI**

XIX asr boshlarida Peterburgda A.X. Vostokov asos solgan rus va slavyan tillarini qiyosiy o‘rganish an’anasi asrning oxirigacha davom etdi. Yirik rus lingvisti, Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi A.A Shaxmatov (1864-1920) 1908 yildan Peterburg unversitetida professor bo‘lib ishlab, asosan rus tili va uning shevalari, til tarixi hamda rus tilining Hind-Yevropa tillari bilan aloqalari,

muommolari bilan shug‘ullangan. U qadimgi rus solnomalarining yirik bilimdoni ham edi. Qadimgi qo‘lyozmalar haqida birinchi maqolasini (18 yoshida) e‘lon qiladi. 1893 yilda u “Rus tili fonetikasi soxasidagi tadqiqotlar” nomli ilmiy asarini yozadi va 1894 yili uni Moskva unversitetida himoya qiladi va unga magistrlik unvoni bilan doktorlik darajasi beriladi. Iste‘dodli yosh olimni 1894 yildayoq akademik qilib saylashadi. A.A.Shaxmatov 150 dan ortiq asar yozgan.

A. A. Shaxmatov semasiologiyaga grammatikaning bir bo‘limi sifatida qarab, uni sintaksis bilan zich bog‘langan deb hisoblagan. “Rus tili sintaksisi” nomli asarida so‘z birliklari va qo‘shma bo‘laklarning tuzilishi, ikki tartibli (murakkab) va bir tartibli gaplarni mukammal tahlil qilgan. Gapda bitta so‘z ham kommunikatsiya vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan gapni tashkil qilishi mumkin, ammo faqat to‘liq gaplargina aloqa vositasini (kommunikatsiyani) atroflicha bajara oladi. Gapning har bir tarkibiy qismi aloqa vositasining talabiga javob berishi lozim.

## **STRUKTURAL LINGVISTIKA VA UNING MAKTABLARI**

**Strukturalizm** atamasi va tushunchasi dastlab golland faylasufi X.I.Boasning 1939 yilda nashr qilingan maqolasida tilga olingan bo‘lib, u tilni belgilar sistemasi sifatida o‘rganuvchi, tilshunoslikning asosiy komponentlari – fonetika, grammatika, leksika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va munosabatlarni tekshiruvchi, tilning tuzilishi to‘g‘risidagi ta‘limot hisoblanadi. Bu aslida F. de Sossyur tomonidan bildirilgan g‘oya asosida yuzaga kelgan lingvistik yo‘nalish bo‘lib, XX asrning 30- yillaridan struktural lingvistika maqomini oldi va Chexoslovakiya hamda Daniya olimlari tomonidan rivojlantirildi. Strukturalizm tilni faqat tarixiy tomondan va qiyoslab o‘rganishni cheklash, har bir tilni grammatik qurilishi va amal qilishi nuqtai nazaridan o‘rganishni ilgari suradi.

### **Strukturalizm yo‘nalishining umumiy xususiyatlari:**

- 1.Til belgi – semiotik tizim: tilning tuzilishi pog‘onali, unda har bir belgi mavjud strukturaning ichki munosabatidir

- 2. Tilning asosiy birliklari - fonema va morfemalar, ular o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatic munosabatlar til birliklarining asosiy tuzilish shakllari hisoblanadi.
- 3. Tilni o'rganishda diaxronik metodlarga qaraganda sinxronik tavsif metodlari afzalroqdir.
- 4. Til birligi tarkibini lingvistik tavsif qilishda lingvistik tadqiqotlar birinchi o'rinda turadi.

### **Strukturalizmning quyidagi maktablari yuzaga keldi:**

1. Praga funksional lingvistika maktabi;
2. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi;
3. Kopengagen glossematika lingvistika maktabi.

### **PRAGA FUNKSIONAL LINGVISTIKA MAKTABI**

Strukturalizmning dastlabki qarashlari 1926 yilda Chexoslovakiyadagi Praga lingvistik to'garagi tomonidan tashkil qilingan, 1929 yildan mustaqil oqim sifatida rivojlanib, o'z qarashlarini 10 yil mobaynida muntazam nashr qilingan "Praga lingvistik to'garagining asarlari"da ifoda qilingan. Bu maktab XX asrning 30-yillarida gullab-yashnadi, ammo 40-yillarga kelib, uning faoliyati pasaydi va 1953 yilda tashkiliy jihatdan tarqalib ketdi. Biroq ushbu maktabning g'oyalari jahon lingvistikasiga katta ta'sir qildi va hozirgi kunda ham ta'sir qilib kelmoqda. Uning yetakchi namoyondalari: chex tilshunosi Vil'yam Matezius (1882-1945), Garvard universiteti professori Roman Osipovich Yakobson (1896), rus tilshunosi, slavyanist va fonolog Nikolay Sergeevich Trubeskoy (1890-1938)lar bo'lganlar.

Praga struktural maktabining funksional lingvistika deb atalishiga sabab u tildagi har bir elementning o'z funksiyasi mavjud, deb hisoblaydi. Ushbu maktab namoyondalari tilning morfologik tuzilishi, sintagmalar, lingvistik nominatsiyalarni jiddiy o'rgandilar, sintagmatikani alohida nazariya sifatida ilgari surib, gap bo'laklarini an'anaviy o'rganuvchi sintaksisga qarama-qarshi qo'ydilar.

Xususan, o'zaro mantiqiy munosabatlarda gap bo'laklarining aktual qismlarga bo'linishi to'g'risidagi Mateziusning ta'limoti katta obro'ga ega bo'ldi.

Uning fikricha, agar rasmiy, an'anaviy mantiqiy grammatik bo'linishdagi asosiy elementlar grammatik ob'ekt va grammatik predikat bo'lsa, unda dolzarb bo'linishda so'zning o'zak va yadrosi o'zini namoyon qiladi. Gapning aktual bo'linishida ohang (intonatsiya) va gap tartibi asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Til va nutqni chegaralash til va stil faoliyatining chegaralanishiga olib keladi.

### **AMERIKA DESKRIPTIV LINGVISTIKA MAKTABI**

Ushbu lingvistik maktab Amerikaning mashhur lingvisti va antropologi Frans Boas (1858-1942) ilmiy qarashlari asosida 1933-1957 yillarda AQShda vujudga keldi. F.Boas Amerika hindularining tasviriy grammatikasiga bag'ishlangan asarlarida barcha tillarni tasvirlashning yagona tamoyilini inkor qilishga va aniq tilning o'z mantiqi asosida, tilning "ichidan" induksiya yo'li bilan o'rganishga chaqirgan edi. F.Boasning ishini Eduard Sepir (1884-1939) hamda Leonard Blumfild (1887-1949) davom ettirdilar. E.Sepir Kanada, Meksika va AQShdagi mahalliy aholilar tillari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, o'zining asosiy "Til" (1921) asarida tilni insonning aloqa quroli bo'lgan aniq tillar ta'siri ostida bo'lishini, insonlarning madaniyati qanday bo'lishi ham tillarga bog'liq bo'lishini ilgari surgan. Sepir tilshunoslikda etnolingvistika yo'nalishining shakllanishiga asos soldi.

Sepirning izdoshi E.Sepir va uning izdoshlari Benjamen Uorf (1897-1941), L.Blumfildlar dastlab Sossyur ta'limotidan ilhomlangan bo'lsalar ham, keyinchalik chetga chiqib ketdilar. Sossyurdan farq qilgan holda Sepir tilda shaklni (formani) ikkilamchi deb hisoblaydi. L.Blumfild tilni tasvirlashning metodini psixologiyadagi bixeviorizm (hatti-harakat psixologiyasi) oqimiga mosladi. Shunga ko'ra u so'zlashish jarayoni qator fiziologik stimullar va reaksiyalar – qabul qilish, eshitish, tinglab tushunish, bunda tashqi ta'sirning o'rni va ahamiyati kabilardan iborat bo'ladi. Ularning fikricha, til – tashqi va ichki aloqalarga ega bo'lgan signallar (xabarlar) sistemasi, shunga ko'ra til metalingvistika va makrolingvistika qismlaridan iborat.

Metalingvistika tilning ogʻzaki faoliyati-tashqi holatini oʻrganib, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, mentalingvistika, paralingvistika (til atrofida hodisalar, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar) kabi fanlarni birlashtiradi. Makrolingvistika ifodalar toʻgʻrisidagi fan boʻlib, matn (nutq boʻlagi) bilan shugʻullanadi. Matn boʻlaklari - fonema va morfemalar muayyan izchillik, ketma-ketlikdagi til birliklaridir. Aynan shu deskriptiv lingvistikani shakllantirdi. Deskriptiv lingvistika matnni har tomonlama tasvirlashga yoʻnaltirilgan boʻlib, uning asosida distributsiya tushunchasi yotadi. Distributsiya muayyan til birligi qoʻllanishi mumkin boʻlgan yoki mumkin boʻlmagan kontekstlar yigʻindisi, yaʼni gap boʻlaklarining bir-biriga nisbatan joylashish oʻrni, tarkibi, birikishi va qoʻllanish xususiyatidir. Ushbu qarashlar tilni sistema sifatida oʻrganish, til va nutqni farqlashga qaratilgan hozirgi zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishida muhim omil boʻldi.

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

- Komparativistika – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.
- Mantiqiy grammatika - mantiqqa asoslangan grammatika.
- Germanistika – german tillarini oʻrganadigan fan.
- Antinomiya – qarama-qarshilik, ziddiyatlilik.
- Sinxroniya – hozirgi, zamonaviy
- Diaxroniya – ketma-ket, tarixiy
- Strukturalizm – tilning tuzilishi, tarkibi toʻgʻrisidagi taʼlimot.
- Semiotika – belgilar haqidagi fan.
- Paralingvistika – til atrofida hodisalar, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar.
- Metalingvistika – tilning tashqi holatini oʻrganadigan fan.
- Distributsiya – gap va soʻz boʻlaklarining oʻzaro munosabati va ketma-ket oʻrnashidir.
- Deskriptiv lingvistika – matnni har tomonlama tasvirlashga yoʻnaltirilgan tilshunoslik boʻlib, uning asosida distributsiya tushunchasi yotadi.

### **Adabiyotlar :**

1. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М.,1979.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Т., 1972.
3. Кодухов В.И. Общее языкознание.– М., 1974.
4. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. –Т., О‘qituvchi, 1979.
5. Щербак А.М. Сравнительная типология тюркских языков. – Л., 1970.
6. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. – М., 1975.
7. Лоя Я.В. История лингвистических учений. – М.,1968.
8. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Т., 2002.
9. Ломтев Т.П. Современное языкознание и структурная лингвистика. В кн: “Теоритическое языкознание”. – М., 1964.
10. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. – М., 1973.
11. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. – М., 1977.
12. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Т., 2016.
13. Ломтев Т.П. Современное языкознание и структурная лингвистика. В кн: “Теоретическое языкознание”. – М., 1964.



### **3-MA'RUZA**

## **TIL SISTEMA VA STRUKTURA SIFATIDA. TIL SISTEMASINING IERARXIK TUZILISHI. TIL SATHLARI O'RTASIDAGI IZOMORFLIK**

### **Reja:**

1. Til - belgilar sistemasi sifatida.
2. Semiotika va lingvosemiotika.
3. Til sistemasining ierarxik tuzilishi.
4. Til va nutq birliklari, ular o'rtasidagi paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlar.
5. Til sathlari o'rtasidagi izomorflik.

### **Asosiy tushunchalar**

Strukturalizm, sistema, struktura, ierarxiya, semiotika, lingvosemiotika, paralingvistika, metalingvistika, ifoda va mazmun, til sathlari, paradigmatica, sintagmatica, izomorfizm, invariant, variant, allofon, allomorf, alloleks, til birliklari va nutq birliklari.

### **TIL - BELGILAR SISTEMASI SIFATIDA**

Olamdagi narsa va hodisalarning har biri o'zaro chambarchas bog'liq ichki guruhlarning bir butunligidan iborat bo'lib, bunda har qaysi butunlik boshqa butunlik bilan uzviy munosabatda bo'ladi. Buni hayvonot olami va o'simliklar dunyosining o'zaro va ayni paytda bilan insoniyat bilan uzviy aloqalari, ularning bir-birisiz yashay olmasligidan ham ko'rish mumkin.

Har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga, muayyan ichki tuzilishga ega bo'lgan 2 va undan ortiq birliklarning o'zaro munosabatidan iborat bo'lib, ayni paytda o'zi alohida strukturani tashkil etadi. Demak, sistema qismlardan, bo'laklardan iborat bo'lsa, struktura ushbu qismlar, bo'laklar o'rtasidagi ichki munosabatdir. Ya'ni, sistema - butunlik, struktura – xususiylik

hisoblanadi. Ular o‘zaro uzviy bog‘liq, bir-birini taqazo qiladi, ayni paytda har biri o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlari bilan mustaqil bo‘ladi.

Sistema strukturaga nisbatan murakkab, ko‘p tarmoqli hodisa, u bir-birini taqazo etuvchi, bir-biri bilan pog‘onaviylik munosabatida turuvchi uzvlardan tashkil topadi. Bu munosabatlar jins va tur, butun va bo‘lak munosabatlaridan iborat bo‘lib, ushbu pog‘onaviy munosabat tufayli ma’lum turlarga nisbatan jins, bo‘laklarga nisbatan butun bo‘lgan qism boshqa butun yoki jins tarkibiga bo‘lak yoki tur bo‘lib kirishi mumkin. Masalan, *olma* bir qator navlar (masalan, jonoqi, razmarin, semerinka va h.z. ) ga nisbatan jins, ushbu navlar o‘z navbatida tur bo‘lib kelsa, *mevali daraxtlarga* va umuman o‘simlikka nisbatan tur, chunki daraxt ham o‘simliklarning muayyan turi hisoblanadi va ayni paytda, avvalo, *mevali, mevasiz, dekorativ* daraxtlar turlariga bo‘linadi. Ushbu turlarning har biri o‘z ichida har xil turlarga bo‘linishi ham barchaga ma’lum.

Yoki fanlar sistemasini olsak, ular ham ichki tuzilishiga ko‘ra pog‘onaviydir. Masalan, fanlar, avvalo, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar va texnika fanlariga, ular esa o‘z navbatida shu yo‘nalishga kiradigan fanlarga bo‘linadi. Har bir fan tuzilishiga ko‘ra ichki bo‘linishlarga bo‘linadi, har bir bo‘linish keyingi bo‘linishlar uchun kichik sistema vazifasini o‘taydi va bunda bo‘linuvchi sistemani, bo‘linma esa uning a‘zosi vazifasini bajaradi. Fanlar sistemasida ma’lum bir fan tarmog‘i bilan munosabatda bo‘lmagan biror tarmoq mavjud emas. Ayni paytda bir ob‘ekt bir necha fanlarning oralig‘ida o‘rganilishi ham kuzatiladi. Demak, ayrim bir fan boshqa tutash fanlarsiz to‘laqonli muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Sistemalarni mohiyatan 2 asosiy turga ajratish mumkin: **material sistema va ideal sistemalar.**

Har qanday moddiy materialdan tayyorlangan inshoot, qurilma, imorat, tarkibiy qismlarga ajraluvchi ob‘ektni yoki jonli organizmni esa material sistema deb hisoblash mumkin. Aynan moddiy sistemalar birlamchi material sistema deb ataladi. O‘zaro muayyan munosabatlar bilan bog‘langan g‘oya, tushuncha yoki fikrlar ideal sistemalar bo‘lib, ular semantik informatsiyaning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan boshqa material tashuvchida mustahamlanadi. Bunday sistemalar

ikkilamchi material sistemalar deb nomlanib, inson faoliyati natijasida yuzaga keladi va semiotik sistemalar deb yuritiladi. Aslida ikkilamchi sistemalar substansional, ya'ni mohiyatan mavjud bo'lmaydi. Masalan, svetofor ranglaridagi ruxsat, man qilish, harakatga tayyorlanish ma'nolari aynan shu ranglarda mavjud emas, ularga ushbu ma'nolarni ifodalash yuklatilgan, buyurilgan, xolos.

Til sistemasi uni tashkil etuvchi qismlari, strukturasiga ko'ra juda murakkabligi, ko'p yarusliligi bilan ajralib turadi. Tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlari struktura qatlamlari bo'lib, ular bir butunlikni tashkil etadi va o'zaro dialektik aloqadorligi bilan tilning mavjudligini ta'minlaydi. Tilning har bir birligi butunlikning qismi sifatida sistema tarkibiga kiradi. Ayni paytda til sistemasining har bir sathi o'ziga xos sistemalar bo'lib, ular ham muayyan struktural elementlardan – muayyan ijtimoiy vazifani bajaruvchi moddiy birliklardan tashkil topadi. Demak, tilni sistemalarning sistemasi, deb atash mumkin. Bunda til sathlarining yig'indisi makrosistema bo'lsa, ichki yaruslar sistemasi mikrosistema sifatida namoyon bo'ladi.

Til so'z, morfema va fonemalarning oddiy yig'indisi emas, balki bir butun sistema bo'lib, uning ichki tuzilishi ierarxik munosabatga ega. Har bir pog'onaga xos birlik 2 yoki undan ortiq uzvlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Bir pog'onada butunlik sifatida qaralayotgan ob'ekt o'zidan yuqori pog'ona tarkibiga uning unsuri (elementi) bo'lib kiradi. Masalan, morfema morfemik sathda 2 yoki undan ortiq fonemalarning munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida qaralsa, morfologik sathda esa so'z shaklning bir elementi sifatida namoyon bo'ladi. Tilning ichki tuzilishi shunday tuzilishga ega, ya'ni har bir sath o'z ichki strukturasiga nisbatan sistema, ayni paytda ushbu sistema bosh sath strukturasining elementi hisoblanadi. Shuning uchun ham til sistemalar sistemasi hisoblanadi.

## SEMIOTIKA VA LINGVOSEMIOTIKA

Til nihoyatda murakkab va ko'p tarmoqli hodisa bo'lgani uchun u turli nuqtai nazardan tavsiflanadi:

**1. Vazifasi nuqtai nazaridan** til insonlarning o'zaro fikr almashish, fikrni shakllantirish, ifodalash va vositasidir.

**2. Tuzilishi, tashkil topishi nuqtai nazaridan** til muayyan birliklar, ularning jami, ularni mantiqiy jihatdan bir-biri bilan bog'lash qoidalaridir.

**3. Mavjudligi nuqtai nazaridan** til ijtimoiy hodisa, ijtimoiy mahsulotdir.

**4. Informatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan** tilni kod bilan tenglashtirish mumkin. Tildagi kodlashtirilgan belgilar muayyan axborot tashish, uzatish, yetkazish vazifasini bajaradi. Bunda kod – axborotni yozib olish usuli, matn – axborot, ma'lumot berish vositasi hisoblanadi, kanal – axborot uzatiluvchi muhit, sharoitni ifodalaydi.

**5. Semiotika nuqtai nazaridan** til belgilar sistemasi, u moddiy boyliklar – tovushlardan tashkil topadi.

**Semiotika** (yoki semiologiya) belgilar sistemasi haqidagi fan bo'lib, belgilar, ularning tabiati, mohiyati, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni o'rganadi. Semiotikaning tekshirish ob'ekti jamiyatda qo'llanadigan belgilar tizimi bo'lib, bunda 2 tipdagi belgilar farqlanadi: tabiiy va sun'iy belgilar. **Tabiiy belgilar** aslida u yoki bu narsa, hodisaning tarkibiy bo'lagi - alomatlari bo'lib, ular inson ongida muayyan tasavvurlarni uyg'otishga xizmat qiladi.

**Sun'iy belgilar** shartli belgilar bo'lib, ular predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarning o'rnini bosish uchun xizmat qiladi. Ushbu belgilarning asosiy vazifasi ma'lum bir xabarni to'plash, saqlash, yetkazish, ya'ni insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishdir. Shu bois ularni kommunikativ-informativ belgilar deb atash mumkin va ularga turli timsollar, signallarni kiritish mumkin.

Sun'iy belgilar grafik, tovushli va harakatli bo'lishi mumkin. Jumladan, yo'l harakati belgilarini grafik, signallarni tovushli, qushlar va hashoratlarning ma'lum yo'nalishlarda uchishi, imo-ishora, mimikalar harakatli belgilar sifatida muayyan ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu o'rinda ayrim turlarga

moslashtirilgan Morze, Brayze alifbolarini ham misol sifatida keltirish mumkin. Til ham muayyan belgilar sistemasi hisoblanadi va ma'no, tushuncha, fikr kabilarning ramziy belgisi bo'lib keladi va jamiyatda mavjud boshqa belgilar bilan umumiylikka, o'xshashlikka ega. Shu bois tilshunoslik va semiotika fanlari ham o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning o'zaro munosabatidan tilni belgilar sistemasi sifatida o'rganadigan **lingvosemiotika** fani ham yuzaga kelgan. U tildagi belgilar tizimini boshqa nolisoniy belgilar va ramzlar bilan qiyoslab o'rganadi (ramzlarning obrazlilik (masalan, qo'l berish – do'stlik belgisi), signallarning bir tomonlamaligi (masalan, trevoga signali).

Demak, jamiyatda belgilarning turli xillari mavjud bo'lib, ularning har biri: **belgi-alomatlar, belgi-signallar (ishoralar), belgi-simvollar (ramzlar) va til belgilari** o'ziga xos va mos vazifani bajaradi. Til tarkibini tashkil etuvchi struktural elementlar – morfema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar muayyan informatsiyani olish va yetkazish uchun xizmat qilishi bilan informativ belgilarning eng asosiysi hisoblanadi va 2 tomonlama: informatsiyani ham qabul qilish, ham yetkazish vazifasini bajaradi. Til grafik belgilar sifatida ham, (yozuv, harf vositasida), tovushli belgilar sifatida ham (og'zaki so'zlashuv, tovush vositasida), harakatli belgilarning o'rnida ham qo'llana oladigan ko'p tarmoqli belgilar sistemasidir. Shuning uchun tilni belgilarning belgisi deb atash mumkin.

Til birliklarini 2 guruhga ajratish mumkin:

- tilning asosiy birliklari – fonema va morfema;
- tilning konstruktiv birliklari – so'z(leksema) va gap.

Bunda fonema til birligining ifoda tomoni va u til birliklarini ma'no jihatidan farqlashga xizmat qiladi. Leksema lug'aviy ma'no ifodalovchi morfema, morfema esa grammatik ma'no ifodalovchi va so'z shakllarini hosil qiluvchi birlikdir.

Har qanday til birligi nutq jarayonida bir nechta variantlar: fonema fonlar (allofon, tovush), leksema (alloleks, leksema varianti), morfema morf (allomorf, morfema varianti), so'z so'z shakli, gap jumla, allofrazema orqali namoyon bo'ladi. Bunda: mustaqil pozitsiyadagi tovush invariant, tobe pozitsiyadagisi uning

varianti; morfema – invariant, uning nutqdagi variantlari esa allomorf yoki morfema variantlari hisoblanadi

Til birliklarining bunday farqlanishi F.De Sossyur tomonidan ilgari surilgan til va nutq dixotomiyasi asosida yuzaga kelgan. Unga ko‘ra konkret zamon va makondagi individ nutqida muayyan sintaktik model asosida yuzaga chiqqan har bir jumlada 2 qator hodisalar mavjud bo‘ladi:

1) nutq so‘zlangunga qadar so‘zlovchi xotirasida mavjud bo‘lgan birliklar va grammatik sxemalar bo‘lib, ular “til faktlari”dir.

2) nutq so‘zlash jarayonida so‘zlovchi sub’ektining ijod mahsuli sifatida aniq zamon va makonda muayyan maqsadni ko‘zlab bayon qilgan fikri -“nutq faktlari”dir.

Ko‘rinadiki, til va nutq o‘zaro farqli hodisalar, ayni paytda biri-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Nutq tilsiz yuzaga chiqa olmaydi, til esa nutqni amalga oshirish uchun yashaydi. Til va nutqning o‘rtasidagi ushbu ziddiyat mohiyat va hodisa dialektikasidan kelib chiqadi va tilning barcha sathlarini qamrab oladi.

## **TIL SISTEMASINING IYERARXIK TUZILISHI**

Tilning o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqazo etuvchi bir qancha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o‘zining uzoq tarixiga ega. Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o‘ziga xos xususiyatini, til ichki birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, bunda quyi bosqich birligi o‘zidan yuqoriroq bosqich birligida o‘z funksiyasini ko‘rsatishini ilmiy asoslab berdi. Xususan, til tuzilishining an’anaviy tilshunoslikda 3 asosiy qism: fonetik, leksik va grammatik qismlarga bo‘linishi va tilshunoslikning bu qismlarni o‘rganadigan 3ta bo‘limga ajratilishi ushbu qatlamlarni bir butunlikda tushunishning yorqin namunasidir.

XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda lingvistik sath tushunchasi maydonga keldi. Til mohiyatining 2 tomonlama ekanligi, tildagi shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o‘z ichki tuzilishiga ega ekanligi, har qaysisi o‘z

uzvlaridan tashkil topgan ichki sistema ekanligi, ular o'rtasidagi munosabat tilni harakatga keltirishi haqidagi qarashlarning barcha tomonidan e'tirof etilishi nafaqat «lingvistik sath» tushunchasining paydo bo'lishiga, balki uning juda keng ma'noda qo'llana boshlashiga olib keldi.


Til birliklarini turli belgilar asosida birlashtirish mumkin. Tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi lingvistik birliklarning iyerarxik – pog'onaviylik xususiyati bo'lib, o'zaro pog'onaviy munosabatda bo'lmagan nisbiy bir xil birliklar munosabatini lingvistik sath deb tushunish mumkin.

Bir sath birliklarining boshqa sathdagi (o'zidan katta yoki kichik) bo'lgan birliklar bilan pog'onaviy munosabatda bo'ladi. Bunda quyi sath birligi yuqori sath birligidan tashkil topadi, ya'ni u yuqori sath birligi tarkibiga kirish xususiyatiga ega. Odatda, til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga bo'lgan munosabat e'tirof etiladi va shundan kelib chiqib, tilga yagona iyerarxik shakllangan sistema deb, tilning ichki tuzilishiga nisbatan bunday yondashuv esa kompozitsion konsepsiya deb qaraladi. Hodisalar pog'onaviy munosabatida gomogen va geterogen munosabatlar farqlanadi. Gomogen munosabatda birliklarning bittasi boshqalari uchun namuna, etalon deb qabul qilinadi. Masalan, qiyoslanayotgan 2 tovushdan mustaqil pozitsiyadagi tovush invariant, tobe pozitsiyadagisi uning varianti hisoblanadi. Til ierarxiyasi esa geterogen, ya'ni ko'p tarmoqli tizimdir.


## **TIL VA NUTQ BIRLIKLARI, ULAR O'RTASIDAGI PARADIGMATIK, SINTAGMATIK VA IERARXIK MUNOSABATLAR**

Tilning murakkab sistema sifatida ijtimoiy-amaliy vazifani bajarishida til sistemasining struktural birliklari o'zaro bog'liq va mantiqiy uyushgan holda harakatga keladi va ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqida xabar beradi. Bunda fonema, morfema, leksema va model – til birliklari, tovush, so'z, so'z birikmasi va gap – nutq birliklari hisoblanadi. Til va nutq kabi til va nutq birliklari ham o'zaro uzviy bog'liq. Til birliklari nutq birliklari uchun moddiy

asos vazifasini o‘taydi, nutq birliklari esa til birliklarining harakatdagi ko‘rinishi bo‘lib keladi.







## **TIL BIRLIKLARI VA ULARGA XOS XUSUSIYATLAR**

**1. Fonema** – tilning eng kichik minimal birligi, biroq til sistemasida eng maksimal vazifani bajaradi. U ta'sir qilish, sezgi uyg'otish quvvatiga ega. Fonema morfema va so'zlarni farqlaydi, faqat ifoda tomoniga ega. Fonema inson nutq a'zolari yordamida hosil qilinadigan tovush tiplarining nutqqacha bo'lgan, reallashmagan, umumlashgan andozalari bo'lib, invariant hisoblanadi. Uning nutqda so'z tarkibidagi ko'rinishi, qurshov tovushlar ta'sirida paydo bo'lgan qiyofasi esa variantdir.

**2. Morfema** - tilning eng kichik ma'no birligi, shakl va mazmun jihatiga ega 2 tomonlama birlik. So'z shakli tarkibida ishtirok etayotgan morfema varianti – morf deyiladi. Morfning faqat o'zi uchun qulay vaziyatlarda yuzaga chiqadigan, tanlab ishlatiladigan shakli allomorf deyiladi. Morfema so'z kabi mustaqillikka ega emas, u nutqda leksema, so'z shakli tarkibida funksional qism sifatida qo'llanadi.

**3. Leksema** - morfema kabi 2 tomonning: tovush va ma'no, ifoda va mazmunning bir bsi va gap kabi utunligidan tashkil topadi. Leksemaning tovush, ifoda touning jamiyat a'zolari moniga nomemalar, ma'no –mazmun tomoniga denotatlar – predmetlar kiradi. Leksemaning eng muhim xususiyati uning jamiyat

a'zolari uchun tayyorligidir. Leksema til sistemasining lug'at boyligi, u so'z birikmasi va gap uchun material hisoblanadi.

**4. Model** – muayyan qolip, tayyor qurilma bo'lib, leksemalar va morfemalar ushbu qoliplar asosida birikadi. Odatda, har bir tilda o'ziga xos qoliplar andazalari, chizmalari mavjud bo'ladi. Til birliklari birikish jarayonida shu qoliplarning muayyan chizmasi asosida birikishi talab etiladi

## **NUTQ BIRLIKLARI VA ULARGA XOS XUSUSIYATLAR**

**1. Tovush** - nutq birligi, fonemaning nutqda voqelashgan, reallashgan moddiy shakllangan asosi. Tovush til birliklari - morfema, leksemalarning moddiy qobig'i, ifoda tomoni hisoblanadi. Tovush xususiylik sifatida fizik, akustik, fiziologik va lisoniy xususiyatlarga ega. U fonemaga nisbatan birlamchi hodisa va fonema bo'la oladi, muayyan birliklarni funksional-semantik jihatdan farqlaydi va ijtimoiy vazifa bajaradi.

**2. So'z** –nutq birligi bo'lgan tovushlar kompleksidan tashkil topgan ijtimoiy belgidir. U tilda tayyor turadigan, imkoniyatlar majmuasi bo'lgan leksemaning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, moddiy ko'rinishidir. Demak, so'z xususiylik sifatida namoyon bo'ladi va perseptiv (tovush tomoniga egalik), nominativ (atash funksiyasi)va signifikativ (ma'no, tushuncha ifodalash) vazifalarni bajaradi.

**3. So'z birikmasi** –leksema va so'zlarning nutq jarayonida erkin birikuvidan tashkil topadigan, nutq jarayonida yetishtiriladigan birlik. U gap bilan so'z orasidagi oraliq nutqiy birlik - nutq mahsuli sifatida baholanadi va gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. So'z birikmasi ham nominativ - atash vazifasini bajaradi, uning ma'nosi tarkibidagi mustaqil so'zlar ma'nolaridan kelib chiqadi, biroq ushbu so'zlar semantikasiga qaraganda aniqroq, chuqurroq, murakkabroq va kengroq mazmunga ega. So'z birikmasi tarkibidagi komponentlar o'zaro tobe-hokim munosabatida bo'ladi. Har bir so'z birikmasi asosida so'z valentligi - so'zlarning birikuvchanlik imkoniyati yotadi.

**4. Gap** – ifoda va mazmun jihatlariga ega bo‘lgan, fikr ifodalash (axborot olish va axborot berish), ya’ni kommunikatsiya akti birligi hisoblanadi. Gap grammatik, intonatsion tugallikka ega bo‘lgan va muayyan hukmni bildiradigan birlik. Ayni paytda gapda borliqqa munosabat– modallik ham ifodalanadi.

Til va nutq birliklari o‘zaro paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatda bo‘ladi. Paradigmatik munosabat til birliklarining umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra bir qatorga, paradigmaga birlashishi bo‘lib, bunga misol sifatida so‘zlarning turlanish yoki tuslanish qatoriga birlashishi va bosh, asosiga ko‘ra farqlanishini keltirish mumkin. Masalan, *kitob, kitobni, kitobning, kitobda, kitobdan* so‘zlarining ma’nosi bosh kelishik shakliga ko‘ra qiyoslanadi va muayyan til birliklarining vertikal yo‘nalishdagi imkoniyatlari sifatida baholanadi. Nutqiy vaziyatda esa ulardan bittasigina voqelanadi.

Sintagmatic munosabatda esa til birliklarining o‘zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishishi va gorizontaal yo‘nalishda birikmalar hosil qilishi tushuniladi: *kitobning qadri, kitobni o‘qish* kabi. Demak, paradigmatic munosabat til birliklarining nutqqacha bo‘lgan til hodisasi bo‘lsa, sintagmatic munosabat til birliklarining nutq jarayonidagi mantiqiy munosabatidir va u nutq hodisasi sifatida qaraladi. Nutq jarayonida tovushdan so‘z, so‘zdan so‘z birikmasi, so‘z birikmasidan gap hosil qilinishi, ularning asosida turgan til birliklari fonema, morfema, leksemalarning ham muayyan til modelini hosil qilishda o‘zaro shunday munosabatda turishi ularning ierarxik munosabatini ko‘rsatadi.

## **TIL SATHLARI O‘RTASIDAGI IZOMORFLIK**

**Izomorfizm** (lotincha *izo* a, – o‘xshash, morfo-shakl) tilning turli sathlari birliklarining ichki tuzilishi o‘rtasidagi o‘xshashlikni bildiradi. Ushbu atama ilk bor Ye.Kurilovich tomonidan kiritilgan bo‘lib, uning fikricha, tovush komplekslari (masalan, *bo‘g‘in*) va semantik komplekslar (masalan, *gap*) funksional, vazifaviy munosabatlaridan qat’i nazar, chuqur struktur parallelizmga ega. Aynan shu holat, ya’ni ular o‘rtasidagi o‘xshashlik *izomorfizm* deb nomlanadi.

Tilshunoslik tarixida tilning fonologik, morfemik, leksik, grammatik sath birliklari ko'p hollarda avtonom holda, ularning aloqadorligi va o'xshash nuqtalarining mavjudligi, ya'ni izomorflik e'tiborga olinmagan holda o'rganildi.

Sistemaviy tilshunoslikning maydonga kelishi, uning tilni o'rganishda aniq metodlarga tayanishga intilishi til sathlari o'rtasidagi izomorfizmga jiddiy e'tibor qaratilishiga sababchi bo'ldi. Izomorfizm tilning turli xil sathlararo munosabatlarda kuzatiladi. Jumladan, bo'g'in va gap o'rtasidagi izomorfizm quyidagilarda ko'rinadi:

➤ bo'g'in asosida unli tursa, gap asosida fe'l turadi;

➤ bo'g'inning markaziy birligi unli bo'lib, u undoshlar bilan kengayishi mumkin, gapning markaziy birligi fe'l kesim ham unga tobe so'zlar bilan kengayishi mumkin bo'lgan kengaytiruvchi bo'lakdir;

➤ bo'g'in ayrim holatlarda unlisiz hosil bo'lishi mumkin, fe'l qatnashmagan gaplar ham mavjud va ular chegara holatlar sanaladi.

Sathlararo izomorfizmni aniqlash yuqori sath birliklarini o'rganishda quyi sathlarda qo'llanilgan tekshirish metodlarini qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu quyi bosqichda qo'llanilgan sodda metodlar yordamida murakkab birliklarni ham o'rganishga rdam beradi. Shuningdek, hozirgi kunda bir-biri bilan aralashtirib yuborilayotgan transformatsiya va derivatsiya hodisalarini tekshirishda morfologik o'zgarish bilan sintaktik o'zgarish o'rtasidagi hamda leksik yasalish bilan sintaktik yasalish o'rtasidagi izomorflikka tayanish lingvistik birliklar o'zgarishi (transformatsiyasi) va yasalishi (derivatsiyasi) o'rtasidagi o'xshash va farqli belgilarni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

Strukturalizm – til tuzilishini o'rganuvchi oqim

Sistema – qismlardan, bo'laklardan iborat bo'lgan murakkab butunlik bo'lib, bir-birini taqozo etuvchi, bir-biri bilan pog'onaviylik munosabatida turuvchi uzvlardan tashkil topgan ko'p tarmoqli hodisa.

Struktura – xususiylik bo‘lib, til qismlari, bo‘laklari o‘rtasidagi ichki munosabatdan tashkil topadi.

Iyerarxiya – bir sath birliklari boshqa sathdagi o‘zidan katta yoki kichik)bo‘lgan birliklar bilan pog‘onaviy munosabatda bo‘lishidir.

Semiotika – (yoki semiologiya) belgilar sistemasi haqidagi fan bo‘lib, belgilar, ularning tabiati, mohiyati, ko‘rinishlari, amal qilishi kabilarni o‘rganadi.

Lingvosemiotika – tildagi belgilar tizimini boshqa nolisoniy belgilar va ramzlar bilan qiyoslab o‘rganadigan fan.

Paradigmatika – til birliklarining umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra bir qatorga, paradigmaga birlashishi.

Sintagmatika – til birliklarining o‘zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishishi va gorizontaal yo‘nalishda birikmalar hosil qilishi.

Izomorfizm – (lotincha izo a, – o‘xshash, morfo-shakl) tilning turli sathlari birliklarining ichki tuzilishi o‘rtasidagi o‘xshashlik.

Grammatika – yunoncha “yozish san’ati” manosi bildiradi.

Gap – ifoda va mazmun jihatlariga ega bo‘lgan, fikr ifodalash (axborot olish va axborot berish), ya’ni kommunikatsiya akti birligi hisoblanadi.

So‘z birikmasi –leksema va so‘zlarning nutq jarayonida erkin birikuvidan tashkil topadigan, nutq jarayonida yetishtiriladigan birlik.

So‘z – nutq birligi bo‘lgan tovushlar kompleksidan tashkil topgan ijtimoiy belgidir.

Tovush - nutq birligi, fonemaning nutqda voqelashgan, reallashgan moddiy shakllangan asosi.

Fonema – tilda ma’no farqlashga xizmat qiluvchi eng kichik birlik

### **Adabiyotlar :**

1. Кондрашев Н.А. История лингвистических учений. – М.,1979.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T., 1972.
3. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 1974.

4. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. –Т., O‘qituvchi, 1979.
5. Щербак А.М. Сравнительная типология тюрских языков. –Л., 1970.
6. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. – М., 1975.
7. Лоя Я.В. История лингвистических учений. – М.,1968.
8. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Т., 2002.
9. Ломтев Т.П. Современное языкознание и структурная лингвистика. /В кн: “Теоритическое языкознание”. – М., 1964.
10. Ф. де Соссюр. Труды по языкознанию. – М., 1977.
11. Ф. де Соссюр. Курс общей лингвистики. – М., 1977.
12. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Т., 2016.

## 4-MA'RUZA

### LINGVISTIK TADQIQOT METODLARI

#### **REJA:**

1. Tilni o'rganish metodlari va metodologiyasi
2. Tavsifiy metod
3. Qiyosiy-tarixiy metod
4. Chog'ishtirish va tipologik metod
5. Struktur metod va uning yo'nalishlari.
  - Funktsional lingvistika
  - Glossematika
  - Deskriptiv lingvistika yo'nalishi va uning metodlari
    - Distributiv tahlil metodi
    - Bevosita ishtirokchilar metodi
    - Transformatsion tahlil metodi
6. Matematik-statistik metodlar
  - Statistik tahlil metodi
  - Avtomatik tahlil metodi

#### **Asosiy tushunchalar:**

Metod, metodika, metodologiya, tasviriy metod, qiyosiy-tarixiy metod, chog'ishtirish metodi, tipologik metod, struktur metod, distributiv tahlil, transformatsion tahlil, bevosita ishtirok etuvchilarga ajratish, statistik tahlil, avtomatik tahlil metodlari.

## TILNI O‘RGANISH METODLARI VA METODOLOGIYASI

**Metod** grekcha *methodos* so‘zidan olingan bo‘lib, “tadqiqot”, “o‘rganish” degan ma‘noni anglatadi. U ob‘ektiv borliqdagi predmet, hodisalarni, ya‘ni tadqiqot manbaini ilmiy tahlil qilish, o‘rganish orqali uning mohiyatini, tabiati, tarkibiy qismlarini, muayyan o‘ziga xos xususiyatlarini topish, ochish, ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarish usuli bo‘lib, muayyan fanga xizmat qiladi va uning taraqqiyotini ta‘minlaydi. Har bir fanning o‘z tadqiqot usullari mavjud. Masalan, tabiiy fanlar, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, tilshunoslik fanlarining metodlari bir-biridan katta farq qiladi. Tabiiy fanlar, tibbiyotda eksperiment, qishloq xo‘jaligida amaliy tajriba ustuvorlik qilsa, tilshunoslikda tahlildan foydalaniladi.

Bir fan doirasida ham turlicha metodlar va ularni qo‘llash usullari mavjud. Jumladan, tilshunoslik fani ham o‘zining qator ilmiy-tadqiqot metodlariga ega bo‘lib, bu tilning ham ijtimoiy-tarixiy, ham ijtimoiy-psixik, ijtimoiy-fiziologik, ham ijtimoiy-individual hodisa ekanligidan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra lisoniy tadqiqot metodlari turli-tumandir.

Jumladan, ona tilini tahlil qilish metodlari bilan chet tillarini tahlil qilish metodlari, tilning sotsiologik jihatlarni o‘rganish usullari bilan nutq tovushlarini tahlil qilish usullari bir-biridan katta farq qiladi. Har bir fanga oid tadqiqot usullarini qo‘llashning muayyan yo‘l-yo‘riqlari mavjud bo‘lib, ular shu fanning ish yuritish metodikasini tashkil etadi.

Demak, **metod** – bu bilish usuli bo‘lsa, **metodika** – bilish usulida qo‘llanadigan yo‘l-yo‘riqdir. Ya‘ni: tadqiqot ob‘ektini tekshirish usuli, individual ish olib borish metodlari, faktlarni yig‘ish, tahlil qilishni umumlashtirish jarayonidir. Shundan kelib chiqib, tilshunoslikda ona tili metodikasi, chet tili metodikasi, til sathlari, til va nutq, til va tafakkur masalalariga, kommunikativ tilshunoslik yoki tilga kompetensiyaviy yondashuv metodlarini qo‘llashga o‘rgatuvchi metodikalar mavjud. Ayni vaqtda ushbu metodlar bir-biridan farq qilsa-da, ularning barchasi bir maqsadga, ya‘ni mazkur lisoniy hodisalarning



“sir”larini ochish va shu asosda ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik xulosalar, falsafiy-mantiqiy umumlashmalar chiqarishga qaratilgan bo‘ladi.

Demak, har bir fanning umumiy metodologiyasi ham mavjud bo‘lib, **metodologiya** yunoncha *methodos* “tadqiqot usuli” va *logos* “ta’limot” so‘zlaridan olingan hamda fanning tadqiqot usullari haqidagi ta’limotdir. Metodologiya bilish faoliyati yo‘llari haqidagi ta’limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. U tadqiqot manbaini qanday tushunish, uni o‘rganishga qanday yondashish, qaysi usullarni qo‘llash, tadqiqot ob’ekti yuzasidan umumiy nazariy, amaliy, mantiqiy yoki tavsifiy bilimlar hosil qilish haqidagi ta’limot bo‘lib, umumilmiy va xususiy fanlar metodlari o‘rtasidagi uzviy munosabatni ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, bilish usullari ham **umumiy va xususiy** bo‘ladi.

Umuman bilish usuli falsafiy tizimga xos bilish tamoyillarini ifodalab, tabiat, jamiyat, tafakkurning umumiy qonuniyatlari haqidagi ta’limot sanaladi. Umumiy metodologiya falsafiy bilish metodining muayyan fan doirasida konkret qo‘llanishi, xususiy metodologiya esa u yoki bu fan tarmog‘iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta’limotdir. Umummetodologik tamoyillar turli fanlar bergan ma’lumotlarni umumlash tirish asosida vujudga keladi. Aytib o‘tilganidek, har bir fanning o‘z maxsus tadqiqot usullari va ularga asoslangan umumilmiy metodologiyasi ham mavjud (ijtimoiy fanlarning tahlilga asoslangan umumilmiy metodologiyasi, tabiiy fanlarning tajribaga asoslangan umumilmiy metodologiyasi kabi). Lekin ularning barchasi asosida kuzatish, idrok qilish, o‘rganish, tushunish, anglash kabi bilish usullari yotadi.

Har bir tadqiqot ishi, albatta, dunyoni bilishga qaratiladi, biroq u fan tarmog‘i xususiyatidan kelib chiqadigan umumilmiy metodologiyaga asoslanadi. Shu bois har bir tadqiqotchi, avvalo, o‘z tadqiqot ishining umumilmiy metodologiyasini va undan kelib chiqadigan tadqiqot metodlari belgilab olishi kerak bo‘ladi. Buni quyidagi ierarxik bosqichlarda ko‘rsatish mumkin:

- *tadqiqot maqsadi – farazi – kutiladigan yangilik*
- *tadqiqot predmeti va ob’ektini tanlash*

➤ *tadqiqot metodologiyasi va metodlarini tanlash.*

Har bir metod esa o'z ichida kuzatish, dalillarni to'plash, ularni o'rganish, qiyoslash, chog'ishtirish, fikrlarni umumlashtirish, anketa so'rovnomasi va tajriba-sinov o'tkazish, natijalarni statistik tahlil qilish, xulosalash kabi usullarni qamrab oladi.

Demak, tadqiqot ishi tadqiqot maqsadini aniqlash va fan yo'nalishiga mos umumilmiy metodologiyani tanlashdan boshlanadi. Jumladan, tilshunoslik sohasida ham tadqiqot ishining nazariy (filologik) yoki amaliy (metodik) yo'nalishda olib borilishi maqsadi tadqiqot ishining keyingi barcha bosqichlarini belgilab beradi. Tadqiqot metodlarni tanlashda ham yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, til ijtimoiy-tarixiy hodisa, shundan kelib chiqib, tadqiqot ishi diaxron yoki sinxron planda o'rganilishi mumkin. Ularning har biri esa o'z tadqiqot metodlariga ega. Tilshunoslikning diaxron tadqiqot metodlari vaqt, zamon belgisi, ya'ni qo'llanishiga ko'ra uzoq o'tmish bilan bog'lanishi bilan tavsiflanadi. Ularga tasviriy, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirish, tarixiy-qiyosiy, tipologik metodlari kiradi.

### **TAVSIFIY METOD**

Bu metod jahon tilshunosligining eng qadimiy va dastlabki yetakchi metodi hisoblanib, qadimgi arab, yunon, hind, xitoy, rim tillariga oid yaratilgan asarlar – grammatikalar mazkur metod asosida yaratilgan. Tavsifiy metod sinxron analiz metodi bo'lib, ob'ektni (matnni) turgan holatida berilgan ma'lumotlar asosida o'rganadi. Tavsifiy metod tomonidan olingan ma'lumotlar barcha metodlar uchun tayanch nuqta hisoblanadi. Struktur metod ushbu metod xulosalariga tayanib ish ko'radi, qiyosiy-tarixiy metod uchun ham qiyoslanayotgan ob'ekt haqidagi izohni tavsifiy metod beradi. Shu bois tavsifiy metod turli davrlarda turli lingvistik maktablar va yo'nalishlarga xizmat qilgan. Hozir ham boshqa metodlar bilan ish olib borayotgan mutaxassislar turli tillarga oid darslik, qo'llanmalar, monografik tadqiqotlarni shu metod asosida yaratmoqdalar. Tavsifiy metodda tadqiq qilish jarayoni quyidagi 2 bosqichda olib boriladi:

I bosqich - komponent tahlil bo'lib, unda matn gaplarga, gaplar so'zlarga, so'zlar morfemalarga, morfemalar esa fonemalarga ajratilib tahlil qilinadi. Komponent tahlil metodi so'z ma'nosini tarkibiy qismlarga – komponentlar (semalar)ga ajratish, har bir semaning so'z ma'nosi - semema tarkibidagi ahamiyati, o'rni, imkonini aniqlash, ishlatilish doirasini belgilash bilan shug'ullanadi. Komponent tahlil qilish metodi orqali so'z ma'nosi mantiqan zaruriy bo'laklarga – komponentlarga ajratiladi, ajratilgan bo'laklarning har biri alohida o'rganilib, ularning so'z ma'nosi tarkibidagi “quvvati”, nutqda qanday vazifa bajarishi o'rganiladi. Sema va sememalarning o'zaro bog'liqligi butun va bo'lak nuqtai nazaridan baholanadi.

II bosqich - kontekstual tahlilda komponent tahlil bosqichida olingan ma'lumotlar muayyan guruhlariga umumlashtiriladi. Ushbu tahlillar til birliklarining tildagi vazifasi, tuzilishi, qo'llanishi kabilarni tavsiflashga, ilmiy izohlashga, umumlashma xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bunda ijtimoiy-sotsiologik, talaffuz-akustik, fanlararo tahlil, distributiv tahlil usullaridan foydalaniladi.

**1. Ijtimoiy-sotsiologik usul** so'zlarni tematik guruhlash, lingvistik-jug'rofiy o'rni, mavqei, me'yoriy-uslubiy xususiyatlarni o'rganadi.

**2. Talaffuz-akustik usul** orqali nutq tovushlarining talaffuz-eshitilish xususiyatlari, fonetik hodisalar tahlili o'rganiladi. Bunda ayniqsa eksperimental-fonetik tahlil metodi muhim o'rin tutadi.

Ushbu metodda nutq tovushlari, intonatsiya, pauza, ritm kabi fonetik hodisalarni maxsus texnik vositalar, asboblarni yordamida tadqiq qilinadi. Ushbu metodda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Somatik usul – gapirish-so'zlash jarayonida fiziologik jarayonlarning jismoniy harakatlari ifodasini o'rganadi. Artikulyatsiya a'zolarini suratga olish, nutq apparatining rentgen tasvirini tushirish, nafas olish jarayonini o'lchash – bu metodning usullari hisoblanadi.

Pnevmatik usul – talaffuz jarayonidagi nutq aʼzolari harakati, havo oqimining ogʻiz, burun va boʻgʻiz boʻshligʻidagi harakati natijasida hosil boʻluvchi ogʻiz, tovush va shovqinlarning oʻzgarishi aniqlanadi.

Elektroakustik usul – nutq faoliyatidagi tovushlarni, ularga xos turlicha xususiyatlarni (masalan, choʻziqlik, qisqalik, baland-pastlik, ohangdorlik, shovqin kabilarni) elektr tebranishlari nuqtai nazaridan tahlil qiladi, ular asosida tavsiflaydi. Ushbu metod nutq tovushlarini nafaqat akustik, balki artikulyatsion jihatdan ham aniq tavsiflash imkonini beradi.

**3. Distributiv tahlil usulida** til va nutq birliklari (fonema, morfema, leksema, soʻz va soʻz birikmalari)ning joylashish oʻrni, oldinma-ketin kelishi, oʻzaro bogʻlanishi va semantik-stilistik munosabatga kirishuvi oʻrganiladi. Bunday tahlil tilshunoslikda deskriptiv yoʻnalish deb atalib, uning asosini distributsiya yoki distributiv metod tashkil etadi.

Unda tillarni oʻrganish 2 bosqichda amalga oshiriladi: 1) lingvistik birliklar aniqlanadi; 2) ushbu birliklarning bir-biriga nisbatan distributsiyasi, joylashuvi belgilanadi. Distributsiya lisoniy birliklarning nutqda qoʻllanish, joylashish oʻrni, boshqa unsurlar bilan birika olish qobiliyati, yaʼni potentsialdagi qurshovi boʻlib, uning morfologik, leksik-semantik, sintaktik turlari bor.

- Morfologik distributsiya – bu bir soʻz turkumini boshqa soʻz turkumlari bilan munosabatga kira olishidir (sifat va ot, ravish va feʼl, artikllar va ot va hakozo). Bunda morfemalar aniqlanib, ularning aloqalari talqin qilinadi, izohlanadi.
- Leksik-semantik distributsiya – til elementlarining mano jihatidan oʻzaro aloqa qilish qobiliyatidir.
- Sintaktik distributsiya – gap boʻlakarining bir-biriga nisbatan joylashuvi va munosabatidir.

Tilda birliklarni qismlarga maʼnoli qismlarga ajratish segmentatsiya deyiladi.

**4. Valentlik tahlil usulida** soʻzning nutq faoliyatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini oʻrganish, uning maʼnoga bogʻliq imkoniyatlarini yoritish masalalari oʻrganiladi. Bunda soʻzning oʻz maʼnosi asosida boshqa soʻzlar bilan

semantik munosabatga kirishuvi, ularni o‘ziga biriktirish xususiyatlari o‘rganiladi, so‘zlar orasidagi semantik munosabat bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltirishi, ya’ni semantik sintagmalar sintaktik konstruksiyalarni hosil qilishi aniqlanadi. Ushbu metod har bir so‘zda valentlik imkoni mavjud bo‘lishi va u sintaktik aloqada yuzaga chiqishi, valentlikning nutqda – so‘zlar orasidagi turlicha bog‘lanishlarda, ya’ni xususiyliklarda namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi.

### QIYOSIY-TARIXIY METOD

XIX asrning 1-choragida yuzaga kelgan mazkur metod lingvistik metodlar ichida eng faoli hisoblanib, unda o‘zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning birliklari (tovush, qo‘shimcha va so‘zlar) tarixiy jihatdan qiyoslanadi, ular orasidagi o‘xshashliklar aniqlanib, ularning dastlabki tarixiy shakllarini tiklashga harakat qilinadi. Bu vazifalar quyidagi usullar vositasida amalga oshiriladi:

- *qiyoslash uchun material to‘plash;*
- *qiyoslanadigan birliklarni belgilash;*
- *birliklar tarkibidagi o‘zgarishlar xronologiyasini aniqlash;*
- *so‘z va morfemalarning qadimgi shakli va ma‘nolarini tiklash.*
- *tillarni qiyosiy o‘rganish va ularning bir-biriga qarindosh va qarindosh emasligini aniqlash;*
- *qarindosh deb tanilgan tillarni bir-biri bilan qiyoslab, ularning bobo tilini tiklash.*

Ushbu metod XIX asrning boshlarida paydo bo‘lgan deyilishiga qaramay, bu yo‘nalish bilan olimlar oldinroq shug‘ullanishga kirishganlar. Unda qiyoslash uchun dalillar faqat qarindosh tillardan - genetik tenglikka ega bo‘lgan tillardangina olinadi. Masalan: ruscha svetok, polyakcha kwiatok “gul”; forscha now, ruscha nov(бу), nemischa neu, inglizcha new “yangi”; grekcha pater, patras, lotincha pater, sanskritcha pitar, nemischa vater, forscha padar, ruscha papa, hindcha “bobo”, “ota” demakdir.

## CHOG‘ISHTIRISH VA TIPOLOGIK METOD

Ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan tillarni qiyoslash **chog‘ishtirish yoki qiyosiy-chog‘ishtirish metodi** deb nomlanadi. Ushbu metodda lingvistik hodisalarning tillararo o‘xshashliklari, umumiy va farqli jihatlari tavsiflanadi, biroq bunda ularning tarixiga, kelib chiqishi, ya’ni genetik jihatlarga, taraqqiyotiga asoslanilmaydi. Chog‘ishtirish metodi ayniqsa chet tillarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi va nafaqat nazariy, balki amaliy maqsadlar uchun ham xizmat qiladi. XVII-XVIII asrlardayoq yuzaga kelgan 2 tilli lug‘atlar, tillar uchun umumiy grammatikalar, bir tildan 2-tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasining yaratilishi ushbu metod asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalaridir. Bu metod bir tilda oddiy tasvirlash metodidan foydalanilganda yuzaga chiqmagan xususiyatlarni ochib berishga yordam beradi.

Bu esa tillarning tarkibini chuqurroq o‘rganish va bilishga imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tomondan, chog‘ishtirish metodi lug‘atlar, qo‘llanmalar yaratish kabi sof amaliy maqsadlarga xizmat qiladi. Ushbu metodni qo‘llash usullari quyidagilardir:

- so‘z va qo‘shimchalarni farqlash, qo‘shimchalarning birikishini tavsiflash;
- shevalar va tillar orasidagi tovush almashinuvi va mos kelishlikni aniqlash;
- adabiy til me’yorlarini ishlab chiqish va ularga o‘rgatish metodikasini shakllantirish;
- bir tilda ifodalangan ma’no yoki vazifa boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishini aniqlash;
- bir tilli (izohli) va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari tuzish.

Hozirgi kunda chet tillarni o‘rganish, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, mazkur metod usullarini qo‘llash vositasida amalga oshirilmoqda, shu bois bugungi kunda uning nazariy va amaliy ahamiyati yanada ortdi.

**Tipologik metod** esa o‘zaro genetik bog‘liq va genetik bog‘liq bo‘lmagan til oilalariga tegishli tillarni qiyoslash asosida o‘rganadi. Shu xususiyati bilan ushbu metod faqat bir til oilasiga kiruvchi tillarni tadqiq qiluvchi qiyosiy-tarixiy

metoddan farq qiladi. Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, bunda tillar genetik jihatdan qaysi oilaga mansub bo'lishidan qat'iy nazar tuzilishidagi o'xshash va farqli jihatlariga ko'ra qiyoslanadi, tillarning struktur-qurilish xususiyatlari aniqlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi. Tillarni tipologik o'rganishning quyidagi yondashuvlari mavjud: klassifikatsion-tasnifiy, xarakterologik, belgili va ichki sistem yondashuvlar.

- **Klassifikatsion yondashuv** tillarga tasnifiy yondashuv morfologik tasnif sifatida o'zak va qo'shimchalar o'zaro zid holda qiyoslab o'rganiladi.
- **Xarakterologik yondashuv** orqali qiyoslanayotgan har bir tilning tuzilishiga, ya'ni o'ziga xos muhim, xarakterli xususiyatlari, jihatlari aniqlanadi hamda shu orqali tilga baho beriladi.
- **Belgili yondashuv** tillarga muayyan belgi-xususiyatlar (masalan, fonetik, morfologik kabi) jihatidan yondashuv bo'lib, bunda til sathlari tipologiyasi (fonetik tipologiya, leksik tipologiya kabilar) yaratiladi.
- **Ichki sistem yondashuvda** muayyan tildagi muayyan hodisalar (fonetik, leksik va b.) orasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar o'rganiladi va tadqiq qilinadi.

## STRUKTURAL TAHLIL METODLARI

**Strukturalizm** (ingl. structural so'zidan olingan) bo'lib, tilni o'zaro bog'langan va nisbatlangan til birliklaridan iborat butun bir tahlil metodi hisoblanadi. Ushbu metod til va nutq birliklari, ushbu birliklarning o'xshash va noo'xshash jihatlari, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash bilan shug'ullanadi. Struktural tilshunoslik uchun tilning ichki qurilishi, til tarkibini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar orasidagi munosabatlar, oppozitsiyalar, ya'ni tilning struktural tomonlari tilning asosiy aspekti hisoblanadi. XX asrning 30-yillarida Amerika tilshunosligida yuzaga kelgan struktural yo'nalish juda ko'p yangi metodlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish va transformatsion tahlil metodlari hozirgi kunda butun jahon tilshunosligida ham keng qo'llanib kelayotgan metodlar hisoblanadi.

## BEVOSITA ISHTIROKCHILAR METODI

Ushbu metodda nutq birliklari (soʻz birikmasi va gaplar) tuzilishi, qanday qismlardan tashkil topishi, ular orasidagi munosabat, aloqalarni oʻrganadi. Bevosita ishtirokchilar – BI metodiga muvofiq avval gapdagi tayanch nuqta – konstruksiya, soʻngra mazkur konstruksiya tarkibidan ishtirokchilar va bevosita ishtirokchilar ajratiladi. Konstruksiya bu maʼnoli qismlarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlik boʻlib, kattaroq konstruksiya tarkibiga kirgan barcha soʻz va morfemalar ishtirokchilar, mazkur konstruksiyaning bevosita shakllanishida ishtirok etgan bir yoki bir nechta ishtirokchilar esa bevosita ishtirokchilar deyiladi.

Masalan, *Shabboda qurgʻur ilk sahar olib ketdi gulning totini* misrasida *olib ketdi gulning totini* BI (bevosita ishtirokchilar), qolgan soʻzlar esa ishtirokchilar sanaladi. Bu gapda bir nechta konstruksiya mavjud boʻlib, har bir konstruksiya qismlarga boʻlinadi va bu boʻlinish oʻzaro graduallik –darajalanish xususiyatiga ega boʻladi. Demak, BI tahlilida, avvalo, soʻz birikmalari ajratiladi va ular quyidagi qoidalarga amal qilgan holda birlashtiriladi:

- bir vaqtning oʻzida 2tadan ortiq boʻlmagan elementlar birlashtiriladi;
- oʻzaro bogʻlanmaydigan elementlarni birlashtirish mumkin emas;
- BI tahlilini qoʻllash tartibi qatʼiy belgilangan boʻladi. Shu xususiyatlardan kelib chiqib, ushbu metod birlashtirish metodi deb ham ataladi.

## TRANSFORMATSION TAHLIL METODI

Transformatsion tahlil metodida sintaktik qurilmalar - konstruksiyalarning muayyan qoidalar asosida boshqa shaklga, koʻrinishga ega boʻlishi – yaʼni transformatsiyalanishi tushuniladi. Transformatsiya – qayta tuzish, oʻzgartirish maʼnosini bildirib, “transformatsion tahlil” va “transformatsion metod” tushunchalarini sinonim sifatida ishlatish mumkin. Ushbu metod yordamida transformatsiyaga uchragan har bir sintaktik qurilmaning tarkibi, bunda namoyon boʻlgan oʻziga xos semantik jihatlari ham chuqur oʻrganiladi. Demak,



transformatsion tahlil metodi til sistemasining ichki mikrosistemalarni – **yadro gaplar** va ulardan hosil bo‘lgan transformalarni, to‘g‘rirog‘i, yadro gaplardan **transformalarning** hosil bo‘lish jarayonini o‘rganadi.

Masalan, *Talaba kitob oldi* gapining transformatsion shakllari (*talaba olgan kitob, talabala tomonidan olingan kitob, kitob olgan talaba, talabaning kitobi*) nutqiy variantlaridan iborat bo‘lib, transformatsion tahlil metodi asos - yadro gap (*talaba kitob oldi*)dan transformatsiyalashgan sintaktik modellarni, ya’ni transformatsiyalanish qoidalari, mexanizmini o‘rganadi. Transformatsion tahlil metodining asosiy vazifasi muayyan tilda mavjud bo‘lgan yadro gaplarni aniqlash, uning sintaktik mohiyati va maqsadga ko‘ra turlicha namoyon bo‘lish imkoniyatlarini ochishdir. Bu metod lingvistik eksperimentlarning bir turi bo‘lib, hozirgi zamon tilshunosligida, xususan, sintaktik va stilistik izlanishlarda qo‘llanilayotgan muhim metodlardan biri hisoblanadi va hozirgi kunda mashina tarjimai, injener va matematik lingvistikasi sohalarida keng qo‘llanadi.

### **STATISTIK TAHLIL METODI**

Ushbu metod lisoniy birliklarning nutq faoliyatidagi, asosan matndagi qo‘llanish miqdorini tadqiq qiladi. Mazkur metod til sathlarining barchasiga nisbatan qo‘llanishi mumkin. Biroq uning eng ko‘p ishlatiladigan sohasi leksikologiya va leksikografiya hisoblanadi. Statistik tahlil asosida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar yordamida eng faol va eng passiv so‘zlar, so‘zlarning me’yoriy va me’yoriy bo‘lmagan qo‘llanishi belgilanmoqda, tarqalish chegarasi, ko‘lami aniqlanmoqda. Bu metod nazariy va amaliy tilshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlar beradigan chastotali lug‘atlar tuzish, lug‘at minimumlari yaratishda qo‘llanadi.

Shuningdek, so‘z shakllari, fonema, morfemalarning qanday taqsimlanishi, o‘zaro birikuvda qanday faollikka egaligini ham aniqlashga yordam beradi.

## **AVTOMATIK TAHLIL METODI**

Ushbu metod davr talabi bilan yaratilgan zamonaviy tahlil metodlaridan biri bo'lib, uning o'ziga xosligi elektron-hisoblash mashinalari (EHM), kompyuterlar yordamida tilni muayyan, bo'laklar, lisoniy birliklar, formal qismlarga ajratish orqali bir tildagi lisoniy birliklar mazmuni boshqa tilga ko'chiriladi, ya'ni kompyuter vositasida avtomatik tarjima qilinadi. Buning uchun avval matni tarjima qilish imkoniyatini beradigan qoidalar tizimi yaratiladi, so'ngra mazkur qoidalarni mashina tilida yozish, ya'ni mazkur qoidalarni amalga oshirish uchun dastur yaratiladi. Dastur va lug'at maxsus shartli belgilar bilan yoziladi va mashinaga kiritiladi.

### **Asosiy tushunchalar glossariysi:**

- Qiyosiy-tarixiy metod – tillar va ularning tarixini qiyoslab o'rganish
- Substansiya – biror tovushni boshqa tovush bosishi
- Distributsiya – tildagi unsurlarning gap tarkibida joylashish o'ri, bir elementning boshqa element bilan birikish qobiliyati
- Bevosita tahlil metodi - nutq birliklari (so'z birikmasi va gaplar) tuzilishi, qanday qismlardan tashkil topishi, ular orasidagi munosabat, aloqalarni o'rganish.
- Transformatsion tahlil – konstruksiyalarning muayyan qoidalar asosida boshqa shaklga, ko'rinishga ega bo'lishi, ya'ni transformatsiyalanishi.
- Avtomatik tahlil metodi - EHM, kompyuterlar yordamida tilni lisoniy birliklar, formal qismlarga ajratish orqali bir tildagi lisoniy birliklar mazmunini boshqa tilga ko'chirish
- Statistik tahlil metodi – lisoniy birliklarning nutq faoliyatidagi, asosan matndagi qo'llanish miqdorini tadqiq qilish

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –T., 2009.
- Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –T., 1972.

- Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М., 1975.
- Baskakov N.A. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, O‘qituvchi, 1979.
- Во‘ronov J.B. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. –Т., 1973.
- Рождественский Ю.В. Типология слова. –М., 1969.
- Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2010.
- Ф. де Соссюр. Труды по языкознанию. –М., 1977.

## 5-MA'RUZA

### LINGVISTIKANING BOSHQA FANLAR BILAN MUNOSABATI. TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

#### REJA:

1. Lingvopoetika.
2. Psixolingvistika.
3. Etnolingvistika.
4. Sotsiolingvistika.
5. Mentalingvistika.
6. Neyrolingvistika.
7. Matematik lingvistika.
8. Kognitiv lingvistika (kognitologiya).

#### Asosiy tushunchalar

Lingvopoetika, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, mentalingvistika, neyrolingvistika, matematik lingvistika, kognitiv lingvistika.

### LINGVOPOETIKA

Til tinglovchiga ta'sir qiladigan qudratli vosita bo'lgani uchun tilshunoslik fani adabiyot bilan uzviy bog'liq va bu lingvopoetika fanini yuzaga keltirgan. **Lingvopoetika** – badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega. Biroq amalda ushbu ob'ektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutq tahliliga beriladi. Demak, badiiy nutq keng tushuncha bo'lib, badiiy asar tili badiiy nutqning bir ko'rinishi, bir fragmenti hisoblanadi. U tilning ekspressiv funksiyasini o'z ichiga olgani uchun, til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Shundan kelib chiqib,

lingvopoetika fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi turlarga bo‘linadi. Lingvopoetikaning vazifasi ushbu sohalarni alohida-alohida o‘rganish va ularning o‘zaro munosabatini ham yoritib berishdan iborat.

Jumladan, fonetik-fonologik sathda bir xil tovushlar bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanib kelib, assonans (bir xil unlilarning takrorlanib kelishi), alliteratsiya (bir xil undoshlarning takrorlanib kelishi) hodisalarini yuzaga keltirishi hamda ta’sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi o‘rganiladi. hodisalarini bunga Masalan, *Odamiy ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami* (A.Navoiy) aforizmidagi **o** tovushining takrorlanib kelishi assonans hodisasi, *Derazamning tagida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi* (H.Olimjon) she’rida **oppoq** so‘zida **p** tovushining alohida ohang bilan takror aytilishi,

*Qaro qoshing, qiyiq qoshing, quyuyq qayrilma qoshing, qiz,*

*Qilib qatlimg‘a qasd, qilich qayrab qotil qaroshing, qiz.*

*Qafasda qalb qushin qiynab, qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan,*

*Qarab qo‘ygin qiyokim, qalbni qizdirsin quyoshing, qiz.* (E.Vohidov) she’rida **q** tovushining takrorlanib kelishi nutqning ifodaviyligini oshirib, kuchli ta’sirchanlikni yuzaga keltirgan.

Leksik sathda leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi (masalan, *Aqlu balog‘atning shotilaridan yuksala beringiz sekundlar sayin* (G‘.G‘ulom) she’ridagi *shoti* so‘zi bosqich ma’nosida ishlatilgan ) sintaktik sathda esa gap bo‘laklarining joylashishi, gap tarkibida bir xil bo‘laklarning takrorlanib kelishi (masalan, *Aziz asrimizning aziz onlari aziz odamlardan so‘raydi qadrin* (G‘.G‘ulom) she’rida *aziz* so‘zining takror kelishi, *Rozimasman bir yosh tomsa ko‘zimdan, rozimasman sal rang ketsa yuzimdan, Yo‘l oshsam-u, sal yashashdan adashsam, rozimasman unda tamom o‘zimdan* (H.Olimjon) she’rida *rozimasman, sal* so‘zlarining, *Har bahorda shu bo‘lar takror, har bahor ham shunday o‘tadi* misrasida *har bahor* birikmasining takror qo‘llanishi kabi hodisalar badiiy nutqda ta’sirchanlikni orttiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

## PSIXOLINGVISTIKA

Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish ob'ekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig'ida *psixolingvistika (yoki lingvopsixologiya)* yo'nalishining yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu atama dastlab 1946 yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan qo'llandi va XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi. Biroq uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga (asoschisi G.Shteyntal) borib taqaladi. U tilda xalq ruhining ifodalanishini ta'kidlab, sotsial, etnik psixologiyani yaratishga intildi.

Ushbu oqim tarafdorlari o'z e'tiborlarini tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, so'z va gaplarning ma'no tomoniga qaratdilar, assotsiativ psixologiya tushunchalarini va amalini kiritishga harakat qildilar. Psixolingvistikaning o'rganish ob'ektiga quyidagilar kiritilgan:

- Nutq faoliyatning vujudga kelish mexanizmini o'rganish
- Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish
- Muayyan nutqiy vaziyatlarda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish
- Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshqarish.

Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu yo'nalishi yanada kengaygan bo'lib, nutqdagi inson omili, individuallik, ichki nutq va tashqi nutq masalalari keng o'rganilmoqda. Nutqiy faoliyat, ya'ni insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o'rganish ob'ekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Tilshunoslik kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi bo'lgan til va uning aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni bir-biridan ajratgan holda, tilning ichki tuzilishi va birliklari, ushbu birliklarning nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, psixolingvistikada esa "ichki tuzilish"dan "tashqi tuzilish" ("tashqi nutq") qa o'tishning asosiy bosqichlari, ushbu 2 tuzilishning o'zaro munosabatlari kabi qator masalalar atroflicha o'rganiladi.

## ETNOLINGVISTIKA

Etnolingvistika atamasi grekcha “etnos“ xalq, qabila soʻzlaridan olingan boʻlib, XIX asrning 70-yillarida Amerika hindularining tili, madaniyati va urf-odatlarini oʻrganishning kuchayishi tufayli yuzaga kelgan. Maʼlumki, xalq tarixida, turmush tarzida yuz bergan har bir voqea, urf-odatlar uning tilida aks etadi, shuning uchun til bilan uning egasi boʻlgan xalq oʻrtasida uzviy aloqa mavjud. Toponim, etnonimlarni xalqning tarixini bilmay turib oʻrganib boʻlmaydi, shuningdek, etnografiya ham tilshunoslikka qimmatli materiallar beradi. Til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni oʻrganish ehtiyoji tilshunoslikda etnolingvistika yoʻnalishini yuzaga keltirdi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yoʻnalish sifatida shakllanishida amerikalik tilshunos, etnograf F.Boasning xizmatlari katta boʻlgan. U va uning izdoshlari hindular tilini tillar va madaniyatlarning oʻzaro taʼsiri, bilingvizm masalalari bilan bogʻliq holda oʻrgandilar. Bu yoʻnalishning ilk davrida koʻproq etnografiya masalalari bilan shugʻullanilgan, faqat oʻtgan asrning 20-yillaridan boshlab muammoning lingvistik tomoniga ahamiyat berilgan. Masalan, *alla* (qoʻshiq) yoki *sumalak*ning tarixi, mazmun-mohiyati, ular bilan bogʻliq urf-odatlarining turlari etnografik masalalar boʻlsa, shu soʻzlarning qoʻllanishi, turli davrlardagi variantlari, ulardagi lingvistik vositalar, shu soʻzlar bilan bogʻliq assotsiativ aloqalar masalalari masalaning lingvistik tomoni hisoblanadi.

50-yillardan boshlab tilshunoslikda semantikaga katta eʼtibor qaratilishi etnolingvistika masalalariga eʼtiborni yanada kuchaytirdi. Turli tillardagi ijtimoiy madaniy soʻzlar (masalan, qarindosh-urugʻ nomlari, milliy realiyalar), turli etnik guruhlarda qoʻllanadigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini oʻrganish ham etnolingvistikaning oʻrganish obʼjektiga kiritildi. Folklor materiallariga eʼtibor qaratilishi til va madaniyat oʻrtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va etnolingvistikaning oʻrganish doirasini kengaytirdi. Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikda alohida yoʻnalish sifatida eʼtirof etilgan va bu yoʻnalish boʻyicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

## SOTSIOLINGVISTIKA

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq va bu tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi sotsiolingvistika yo'nalishining shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa zamonaviy ijtimoiy rivojlanish hamda ilmiy texnik revolyusiya tilning sotsiolingvistik va struktur o'rganish muammolarini chuqur tahlil qilishni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi. Sotsial lingvistika fonologik sistema birliklaridan tortib butun til strukturasi bo'lgan barcha til hodisalarini ijtimoiy shartlashgan hodisalar deb qaraydi. Barcha ijtimoiy hodisalar ichida til sistemasi eng yopig'i hisoblanadi, o'ziga xos xususiyatlariga va murakkab strukturaga ega.

Jamiyat lingvistik hayotiga ilmiy-texnika revolyusiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami, sohalari va xususiyliklarini aniqlash sotsiolingvistikaning eng muhim va dolzarb vazifasidir. Lingvistikaning sotsiolingvistik tadqiqotlar ob'ekti bo'lmish tomonlari - terminologik tizimlarning paydo bo'lishi va ularni uzluksiz differentsiatsiyalanishi, dunyo tillari ijtimoiy funksiyalarining notekis rivojlanish jarayonlari, hududiy dialektlarning maydalashuvi, rivojlangan tillarning ijtimoiy-kasbiy differentsiatsiyasining tezlashuvi, leksik-semantik va stilistik sistemalarga jamiyatdagi mafkuralar ta'sirining kuchayishi kabi masalalariga ilmiy texnikaning rivojlanishi eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq. Til madaniyat yaratishning eng asosiy vositalaridan biri bo'lib, u madaniyatga erishish, uni tushunish, uning turli sohalarida muloqot yuritish vositasidir. Ko'rinadiki, madaniyat tilning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi, biroq u til ichki rivojlanishining asosiy vositasi ham, quroli ham emas. Madaniyatning rivojlanishiga ijtimoiy faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Til va madaniyatning o'zaro munosabati negizida lingvokulturologiya, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik sohasi ham vujudga keldi. Ushbu sohaning nazariy va amaliy ahamiyati bugungi kunda ayniqsa dolzarb, chunki ayniqsa tillarni



egallashda tili o'rganilayotgan xalqning madaniyatini bilishning amaliy ahamiyati nihoyatda katta.

## MENTALINGVISTIKA

O'tgan XX asrning 80-yillaridan boshlab ilmiy tadqiqotlar paradigmasi o'zgardi. Agar ilgari fundamental fanlar tomonidan nazariy g'oyalar yaratilgan va ular hayotga joriy etilgan bo'lsa, ya'ni **“nazariyadan amaliyotga”** tamoyili ustuvorlik qilgan bo'lsa, hozir uning aksi kuzatilmoqda: nazariy tadqiqotlar yo'nalishini u yoki bu texnologiyaning taraqqiyotiga ehtiyoj belgilamoqda. Endilikda tilning ichki tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda til sohibining kommunikatsiya jarayonidagi o'rni va rolga alohida e'tibor berila boshlandi. Kommunikatsiya jarayonida so'zlashuvchilarning amaliy bilimisiz tilni to'liq o'rganib bo'lmasligi aniq bo'lib qoldi.

**Mentalingvistika** tilshunoslikning til va tafakkur munosabatini o'rganadigan yo'nalishidir. Bugungi kunda kognitiv fanlar tomonidan ilgari surilayotgan borliqni **mental gavdalantirish** yoki **til mentalligi** g'oyasida ob'ektiv olam qismlari bilan uning tasavvurlari o'rtasidagi munosabat, ya'ni borliqning til orqali ongda aks etishi tushuniladi. Olamni aks ettirish yoki tasavvur qilish cho'qqilar tamoyilligiga asoslanadi, boshqacha aytganda, so'zlovchi tomonidan olamning eng muhim relevant belgisi sifatida ko'ringan qismlari, ya'ni cho'qqilari tasavvur qilinadi. Til mentalligi nazariyasiga ko'ra “olam” atamasi ostida insonni qurshab turgan olamgina emas, balki inson tomonidan yaratilgan, ya'ni insonning nutqiy faoliyati va uning holati olami ham tushuniladi.

Til mentalligi hozirgi kunda sintaktik semantikaning tayanch tushunchasi bo'lgan freymlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, leksik maydon nazariyasi va freym semantikasi o'rtasida ham muayyan bog'liqlik va o'ziga xoslik mavjud. **Freym** quyma (stereotip) vaziyatlarni gavdalantirish usuli bo'lib, ya'ni, masalan, *opa, aka, amma, xola, nonushta, tushlik, to'y* so'zlari ongimizda ular bilan bog'liq muayyan guruhlarni gavdalantiradi. Har bir guruhga mansub a'zoning ma'nosini

bilish uchun, avvalo, ularning barchasi nimani bildirishi haqidagi bilimga ega bo'lish, ya'ni har bir guruhni bir butun mohiyat sifatida tushunish talab etiladi. Ya'ni: bizning sezgi a'zolarimizga berilgan borliq uzvlari **mental konsept (fikriy hosila)** ekanligini e'tirof etish g'oyasi orqali umumiylik hosil qilinadi.

## NEYROLINGVISTIKA

O'tgan asrning 70-yillarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlari oralig'ida neyropsixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan, nutqiy faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o'rganadigan yangi tarmoq neyrolingvistika–**neyrolingvistika** vujudga keldi. Ushbu fanda miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalari, ya'ni afaziya holati ham o'rganiladi.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutq faoliyatining buzilishi masalasi Ibn Sino, Beruniy asarlaridayoq qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu hodisalar XIX asrning 2-yarmidan boshlab o'rganila boshlandi, A.R. Luriyaning "Neyrolingvistikaning asosiy muammolari" kitobi chop etildi.

Inson borliqni ongida sezgi organlari yordamida aks ettiradi. Sezgi tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi, miya esa bu axborotlarni umumlashtiradi. Demak, ob'ektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi. Nerv sistemasi 2 guruh nerv tuzilmalarini o'z ichiga oladi:

- 1) markaziy nerv sistemasi
- 2) chegara nerv sistemasi

Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalarining markazga qarab yo'nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv sistemalari markaziy nerv sistemalariga ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Chegara nerv sistemalariga aloqador a'zolar **tahlil qiluvchilar (analizatorlar)** deb atalib, ularga ko'rish, eshitish, ta'm-maza a'zolari kiritiladi.

Har bir analizatorida 3 ta sohaviy sath ajratiladi:

- 1) axborotni sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi

2) borliq predmetlariga yo‘naltiruvchi tuzilmaalar, bu miyaning bilish zonasi deb yuritiladi.

3) murakkab anatomik tuzilishga ega bo‘lgan til pardasi. Bu sathda miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar birlashtiriladi va sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o‘tish imkoniyati yuzaga keladi. Shunday qilib, neyrolingvistika inson tomonidan olamni belgilashtirish jarayonini kompleks tarzda o‘rganuvchi fan tarmog‘i sifatida o‘ziga turdosh - psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalari va metodlaridan foydalanib rivojlanib bormoqda.

### **MATEMATIK LINGVISTIKA**

XX asrning o‘rtalariga kelib tilshunoslikda bir qator lingvistik tushunchalarni aniqlashtirish ehtiyojini matematik lingvistika yo‘nalishini yuzaga keltirdi. Bu muayyan matematik apparatlardan foydalaniladigan tadqiqot usuli bo‘lib, hozirgi kunda ushbu atama 2 xil fan sohasiga nisbatan qo‘llanmoqda:

1) matematikaning bo‘limi bo‘lgan va mantiq, algoritm nazariyasi bilan bog‘liq matematik lingvistika;

2) lingvistika yo‘nalishi bo‘lgan va matematik usullardan foydalaniladigan tadqiqot metodi ni o‘zida jamlagan soha ham matematik lingvistika.

Tilni matematik yo‘l bilan tasniflash Sossyurning tilga shu til egalarining nutqiy faoliyati mexanizmi sifatida qarash ta’limoti asosida yuzaga kelgan.

Nutqiy faoliyat natijasida “to‘g‘ri matn” deb ataluvchi nutqiy birliklar ketma-ketligi yuzaga keladi. Muayyan qonuniyatlarga bo‘ysungan ushbu birliklarni matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o‘rganish bilan matematik lingvistika fani shug‘ullanadi. Gapning sintaktik strukturasi tavsiflashda 2 xil usuldan foydalaniladi: 1) sintaktik birlik sifatida amal qiladigan ishtirokchilarni aniqlash; 2) gap tarkibidagi so‘zlarning tobelanish munosabatini tavsiflash. Bunda metod Amerika struktur tilshunosligida “Bevosita ishtirokchilar metodi” deb yuritilib, transformatsion grammatikaning ko‘rinishi hisoblanadi.

Matematik lingvistikaning yana bir tarmog‘i **formal grammatika nazariyasi** bo‘lib, u N.Xomskiy nomi bilan bog‘liq. Formal grammatika alohida matnlarni emas, bir qancha to‘g‘ri matnlarni va qonuniyatlarni tavsiflash usullarini o‘rganadi. Ushbu qonuniyatlar abstrakt simvollar orqali belgilanadi, bu esa **generativ lingvistikani** yuzaga kelishiga olib keldi. Shuningdek, tilshunoslikdagi variantlilik nazariyasi, invariant atamasi, tilshunoslikda keng qo‘llanayotgan statistik metodlar matematika ta‘sirida vujudga kelgan bo‘lib, ular EHM yordamida turli tillarga tarjima matnlarini, lug‘atlarini yaratish, chastotali lug‘atlar tuzish, matnni muayyan tartibga solish kabi amaliy vazifalarni bajarishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

### **Asosiy tushunchalar:**

**Lingvopoetika** – lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalari, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi.

**Psixolingvistika** – insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayonini o‘rganuvchi yo‘nalishi.

**Etnolingvistika** - grekcha “etnos“ xalq, qabila so‘zlaridan olingan bo‘lib, til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni o‘rganish.

**Matematik lingvistika** - til birliklarini matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan.

**Sotsiolingvistika** - tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi, tilga sotsial omillarning ta‘siri kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalishi.

**Mentalingvistika** -tilshunoslikning til va tafakkur munosabatini o‘rganadigan yo‘nalishi.

**Neyrolingvistika** - nutqiy faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o‘rganuvchi tarmog‘i.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М. : МГУ, 1975.

2. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. –М., 1977.
3. Рождественский Ю.В. Типология слова. – М., 1969.
4. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2010.
5. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М., 1975.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Т., 2009.
7. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Т., 1972.
8. Baskakov N.A. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, O‘qituvchi, 1979.
9. Bo‘ronov J.B. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. –Т., 1973.